

004
M34

R.V.QOBULOV, B.B.AKBARALIYEV,
J.T.USMONOV, O.B.RO'ZIBAYEV

MA'LUMOTLAR BAZASI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**R.V.QOBULOV, B.B.AKBARALIYEV,
J.T.USMONOV, O.B.RO'ZIBAYEV**

MA'LUMOTLAR BAZASI

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan Oliy
o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilsin.**

TOSHKENT – 2021

UDK: 004.6(075)

BBK: 32.973-018.2

M 34

R.V.Qobulov, B.B.Akbaraliyev, J.T.Usmonov, O.B.Ro'zibayev.
Ma'lumotlar bazasi. (O'quv qo'llanma) – T.: «Aloqachi», 2021. –
140 b.

ISBN 978-9943-6398-1-2

O'quv qo'llanmada ma'lumotlar modellari, relyatsion model, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari, relyatsion algebra va hisob, SQL tilida ma'lumotlar bazasini yaratish, so'rovlar yaratish, cheklanishlar va tasvirlar, ma'lumotlar bazasini loyihalashtirish, CASE tizimlar, tranzaksiyalarni qayta ishlash, ma'lumotlar bazasini himoyalash, XML va multimodel ma'lumotlar bazalari yoritilgan.

O'quv qo'llanma universitetning barcha ta'lim yo'nalishlari talabalari va professor- o'qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan.

UDK: 004.6(075)

BBK: 32.973-018.2

Taqrizchilar:

Kerimov K.F.

Madraximov Sh.F.

ISBN 978-9943-6398-1-2

© «Aloqachi» nashriyoti, 2021.

Kirish

Hozirgi davrda turli sohalarda avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini yaratish va qo'llash katta ahamiyatga ega. Bunday tizimlarga halq xo'jaligini boshqarish, ilmiy izlanishlarni avtomatlashtirish loyihalashtirish va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish tizimlari kiradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari, hisoblash tizimlari rivojlanishi keng ko'lamli korporativ tizimlarni yaratish uchun keng imkoniyat yaratmoqda. Zamonaviy avtomatlashtirilgan axborot tizimlari asosini maxsus ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlarida yaratilgan ma'lumotlar bazalari tashkil etadi. Ma'lumotlar bazalari tuzilmasi asosida ma'lumotlar modellari yotadi. Oxirgi davrda obyektga yo'naltirilgan, grafli ma'lumotlar bazalari keng rivojlanib bormoqda. Lekin relyatsion ma'lumotlar bazalari yetakchi rolini yo'qotgani yo'q. O'quv qo'llanmada ma'lumotlar bazalari hozirgi holatini aks ettirishga harakat qilindi. SQL tili asoslari va turli modellar uchun kengaytmalariga ham e'tibor berildi.

- Birinchi bobda ma'lumotlar bazasi asosiy tushunchalari berilgan.
- Ikkinchi bobda ma'lumotlar bazasi modellari va normal formalar berilgan.
- Uchinchi bobda SQL tili orqali ma'lumotlar ustida amallar bajarish yoritilgan.
- To'rtinchi bobda Ma'lumotlar bazasiga murojaatni amalga oshirish yoritilgan .

O'quv qo'llanma yo'nalish uchun fan o'quv dasturiga asoslangan. O'quv qo'llanmada bilimlarni mustaxkamlash uchun nazariy savollar hamda amaliy misollar berildi. Misollarda amaliyotda hamda o'quv adabiyotda keng uchraydigan ma'lumotlar bazalaridan foydalanildi. O'quv qo'llanmadan mustaqil ta'lim uchun ham foydalanish mumkin.

1-BOB. Ma`lumotlar bazasining asosiy tushunchalari

1.1. Ma`lumotlar bazasining maqsadi, vazifalari va asosiy tushunchalari

Zamonaviy axborot tizimlari asosini ma`lumotlar bazasi tashkil etadi. Ma`lumotlar bazasi deb kompyuter xotirasida saqlanuvchi ma`lum sohaga tegishli faktografik ma`lumotlar majmuasiga aytiladi. Faktografik ma`lumotlar ma`lum turdagi foydalanuvchilar uchun kerak bo`lgan real predmetlar, hodisalar va jarayonlar xossalarini aks ettiruvchi ma`lumotlardir.

Predmet sohasi bu boshqarishni avtomatlashtirish lozim bo`lgan sohadir. Ma`lumotlar bazasida konkret predmet sohasiga tegishli dinamik ravishda yangilanuvchi ma`lumotlar tizimi saqlanadi. Ma`lumotlar bazasida ma`lumotlar bilan birga ularning tavsiflari saqlanadi. Foydalanuvchi dasturlariga bog`liq bo`lmagan bu ma`lumotlar metama`lumotlar deyiladi. Metama`lumotlar ma`lumotlar bazalari lug`atlarida saqlanadi.

Ma`lumotlar banki deganda ma`lumotlar integrallashgan majmuasini qo`llash uchun mo`ljallangan algoritmik, dasturiy, texnik va tashkiliy vositalarga aytiladi.

Axborot texnologiyasi — axborot tizimlarni yaratish va yuritish usullari hamda vositalari majmuasi;

Axborot tizimi — axborotni to`plash, saqlash, izlash, o`nga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beruvchi tizim.

Har qanday axborot tizimi strukturasi, qo`llanish sohasidan qat'iy nazar, bir nechta qismlardan iborat bo`ladi. Ta`minlovchi qismlar olti xil bo`ladi: texnik, matematik, dasturiy, tashkiliy, huquqiy ta`minotlar.

Ta`riflar:

Mohiyat - predmetlar, hodisalar, jarayonlar umumiy xossalari asosida birlashtiruvchi tushuncha.

Mohiyat nusxasi – umumiy mohiyatga ega konkret predmetlar, hodisalar, jarayonlar.

Mohiyatlar to`plami – bir xil xossalarga ega mohiyatlar to`plami.

Atribut – mohiyat xossasi.

Domen- atribut aniqlanish sohasi.

Tobe mohiyat – agar bir mohiyat mavjudligi ikkinchi mohiyat mavjudligiga bog‘liq bo‘lsa *tobe mohiyat* deyiladi.

Birlamchi kalit – mohiyat nusxasi unikalligini ta‘minlovchi atribut yoki atributlar ro‘yxati.

Tashqi kalit – bog‘langan mohiyat birlamchi kaliti.

Bog‘lanish - bir nechta mohiyatlar orasidagi assotsiatsiya.

Bog‘lanishda mohiyat roli – aloqada mohiyat bajaradigan funksiya.

Bog‘lanishlar to‘plami – har bir biror mohiyatlar to‘plamiga tegishli n ($n > 1$) mohiyatlar orasida aloqa.

Bog‘lanish darajasi - boshqa mohiyat bilan aloqalar to‘plami orqali assotsiatsiya qilinuvchi mohiyatlar soni.


Bog‘lanish tegishlilik sinfi yoki kardinalligi. Mohiyatlar orasida quyidagi munosabatlar aniqlangan:

Birga – bir (1:1) munosabat. Ikki mohiyat orasida birga bir bog‘lanish mavjud deyiladi agar birinchi mohiyatning har bir nusxasiga ikkinchi mohiyatning bitta nusxasi mos kelishi mumkin bo‘lsa, va aksincha.

Birga – ko‘p (1:n) munosabat. Ikki mohiyat orasida birga ko‘p bog‘lanish mavjud deyiladi. Agar birinchi mohiyatning har bir nusxasiga ikkinchi mohiyatning bir nechta nusxasi mos kelishi mumkin bo‘lsa, va ikkinchi mohiyatning har bir nusxasiga birinchi mohiyatning bittadan ko‘p bo‘lmagan nusxasi mos kelishi mumkin bo‘lsa.

Ko‘pga – bir (n:1) munosabat. Ikki mohiyat orasida ko‘pga bir bog‘lanish mavjud deyiladi agar birinchi mohiyatning bir nechta nusxasiga ikkinchi mohiyatning ko‘pi bilan bitta nusxasi mos kelishi mumkin bo‘lsa va ikkinchi mohiyatning har bir nusxasiga birinchi mohiyatning bir nechta nusxasi mos kelishi mumkin bo‘lsa.

Ko‘pga – ko‘p (m:n) munosabat. Ikki mohiyat orasida ko‘pga ko‘p bog‘lanish mavjud deyiladi, agar birinchi mohiyatning har bir nusxasiga ikkinchi mohiyatning bir nechta nusxasi mos kelishi mumkin bo‘lsa va aksincha.



1.1-Rasm. "Mohiyat-aloqa" diagrammasi

Modellar turlari. Datalogik bosqichda xilma – xil ma‘lumotlar bazalari bilan ishlash ta‘minlanadi. Ma‘lumot modeli, bu MB ni ma‘lumot elementlari to‘plami orasidagi bog‘lanish strukturalarini tasvirlovchi umumiy sxemadir. Ma‘lumot modeli tushunchasini aniq ta‘rifini Kodd bergan. U ma‘lumot modelini 3 ta kerakli komponentasini keltirgan:


- 1.Mavjud bo‘lgan ma‘lumot strukturalarini aniqlash vositalari majmuasi;
- 2.Ma‘lumotlarni qidirish va takomillashtirish uchun MB holatiga qo‘llaniladigan amallar to‘plami;
- 3.Oshkor yoki oshkormas holda MB holatini aniqlovchi va bir butunligini ta‘minlovchi vositalar to‘plami.

Ierarxik modellar. Ierarxik modellarda yozuvlar daraxtsimon strukturali ko‘rinishda bo‘ladi. Ierarxik tuzilishli ma‘lumotlar sodda yaratiladi. Bu ko‘pincha tadbirlarda qulay, lekin ma‘lumotlarni ko‘plari daraxtsimon strukturali bog‘lanish tabiatiga ega emas.

Ierarxik model «birga bir» va «birga ko‘p» bog‘lanishlarni qo‘llaydi. Yana «ko‘pga ko‘p» bog‘lanishni ma‘lumotlarni ikkalash hisobiga qo‘llashi mumkin. Asosiy yaxlitlik cheklanishi shundaki avlod ajdodsiz bo‘lishi mumkin emas. Shuning uchun ajdod tugun o‘chirilganda butun ostki daraxti ham o‘chiriladi.

Ierarxik model ustunligi xotira samarali foydalanishi, asosiy amallarning tez bajarilishi, ierarxik axborot bilan ishlash qulayligi.

Ierarxik model kamchiligi ajdodga ega bo'lmagan nusxalarni saqlash mumkin emasligi «ko'pga ko'p» bog'lanishni joriy etish murakkabligi.



1.2-Rasm. Daraxtsimon ma'lumotlar modeli

Tarmoqli model. Agar munosabatdagi joriy element bir nechta berilgan elementga ega bo'lsa, bunday bog'lanishlarni ierarxik strukturalar bilan tavsiflab bo'lmaydi.

Bunday tuzilmalar tarmoqli graflar bilan tavsiflanadi. Tarmoqli strukturalarda element ixtiyoriy boshqa element bilan bog'lanishi mumkin.

Ya'ni, tarmoqli bir nechta kichkina obyektlardan topgan yirik obyekt deb qarash mumkin.

Tarmoqli MB turida ma'lumotlar bilan quyidagi ishlarni bajarish mumkin.


- MB yozuvlarini qidirish
- Yangi yozuvni yaratish
- Joriy yozuvni olib tashlash
- Joriy yozuvni tiklash

- Yozuvni bog‘lanishga qo‘shish
- Yozuvni bog‘lanishdan olib tashlash
- Bog‘lanishlarni o‘zgartirish

Bog‘lanish «ko‘pga ko‘p» tashkil etish uchun bitta yozuvga bog‘langan ikkita «birga ko‘p» bog‘lanish tashkil etiladi. Lekin quyidagi cheklanishlar bajarilishi lozim:

- 1) har bir to‘plamda faqat bitta yozuv ajdod bo‘lishi mumkin, lekin bitta yozuv bir nechta to‘plamda ajdod bo‘lishi mumkin;
- 2) bir yoki bir nechta yozuv bitta to‘plam elementi bo‘lishi mumkin;
- 3) yozuv bir nechta to‘plamga kirishi mumkin;
- 4) yozuv bitta to‘plamda ajdod, boshqasida avlod bo‘lishi mumkin;
- 5) ikki yozuv orasida ixtiyoriy sondagi to‘plam bo‘lishi mumkin;
- 6) yozuvlar siklni tashkil etishi mumkin;
- 8) yozuv biror to‘plam a‘zosi bo‘lishi shart emas.

Tarmoqli model afzalligi yozuvlar orasida ixtiyoriy aloqalarni o‘rnatish mumkinligi.



1.3-Rasm. Tarmoqli ma‘lumotlar modeli

Relyatsion model. Ma‘lumotlarning relyatsion modeli muallifi Edgar Frank hisoblanadi.

Relyatsion model ma‘lumotlarni sodda jadval ko‘rinishda tasvirlashga asoslangan. Jadvallar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- bir ustundagi hamma qiymatlar bir turga tegishli bo‘lishi lozim;

- jadvalda bir xil satr ikki marta uchramaydi;
- jadval ustunlari **atributlar** deb ataladi va har biri alohida nomga ega bo‘ladi. Jadval satrlari **yozuvlar** deb ataladi.
- atribut aniqlanish sohasi **domen** deb ataladi.
- har bir yozuv unikalligini ta‘minlovchi atribut yoki atributlar ro‘yxati **birlamchi kalit** deb ataladi.
- boshqa jadval birlamchi kalitini tashkil qiluvchi atribut yoki atributlar ro‘yxati **tashqi kalit** deb ataladi.

Jadvallar quyidagicha belgilanadi.

Jadval (atribut nomi,..., atribut nomi)

Yaxlitlik sharti. Birlamchi kalit cheklanishlari. Birlamchi kalit atributlari NULL qiymatga ega bo‘lmasligi lozim.

Tashqi kalit cheklanishlari. Biror yozuvda tashqi kalit atributlari NULL qiymatga ega bo‘lmasa mos jadvalda birlamchi kalit xuddi shunday qiymatli yozuvi mavjud bo‘lishi kerak.

Ma‘lumotlar bazasi. Hozirgi kunda inson faoliyatida ma‘lumotlar bazasi (**MB**) kerakli axborotlarni saqlash va undan oqilona foydalanishda juda muhim rol o‘ynamoqda. Sababi: jamiyat taraqqiyotining qaysi jabhasiga nazar solmaylik o‘zimizga kerakli ma‘lumotlarni olish uchun albatta, MBga murojaat qilishga majbur bo‘lamiz. Demak, MBni tashkil qilish axborot almashuv texnologiyasining eng dolzarb hal qilinadigan muammolaridan biriga aylanib borayotgani davr taqozasidir. Informatsion texnologiyalarning rivojlanishi va axborot oqimlarining tobora ortib borishi, ma‘lumotlarning tez o‘zgarishi kabi holatlar insoniyatni bu ma‘lumotlarni o‘z vaqtida qayta ishlash choralarining yangi usullarini qidirib topishga undamoqda. Ma‘lumotlarni saqlash, uzatish va qayta ishlash uchun MBni yaratish, so‘ngra undan keng foydalanish bugo‘ngi kunda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Moliya, ishlab chiqarish, savdo-sotiq va boshqa korxonalar ishlarini ma‘lumotlar bazasisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ma‘lumki, MB tushunchasi fanga kirib kelgo‘nga qadar, ma‘lumotlardan turli ko‘rinishda foydalanish juda qiyin edi. Dastur tuzuvchilar ma‘lumotlarini shunday tashkil qilar edilarki, u faqat qaralayotgan masala ucho‘ngina o‘rinli bo‘lardi. Har bir yangi masalani hal qilishda ma‘lumotlar qaytadan tashkil qilinadi va

bu hol yaratilgan dasturlardan foydalanishni qiyinlashtirar edi. Har qanday axborot tizimining maqsadi real muhit obyektlari haqidagi ma'lumotlarga ishlov berishdan iborat. Keng ma'noda ma'lumotlar bazasi - bu qandaydir bir predmet sohasidagi real muhitning aniq obyektlari haqidagi ma'lumotlar to'plamidir. Predmet sohasi deganda avtomatlashtirilgan boshqarishni tashkil qilish uchun o'rganilayotgan real muhitning ma'lum bir qismi tushuniladi. Masalan, korxonalar, zavodlar, ilmiy tekshirish instituti, oliy o'quv yurti va boshqalar. Shuni qayd qilish lozimki, **MB**ni yaratishda ikkita muhim shartni hisobga olmoq zarur: **Birinchi**dan, ma'lumotlar turi, ko'rinishi, ularni qo'llaydigan programmalarga bog'liq bo'lmasligi lozim, ya'ni **MB**ga yangi ma'lumotlarni kiritganda yoki ma'lumotlar turini o'zgartirganda, programmalarni o'zgartirish talab etilmasligi lozim.

Ikkinchidan, **MB**dagi kerakli ma'lumotni bilish yoki izlash uchun biror programma tuzishga hojat qolmasin. Shuning uchun ham **MB**ni tashkil etishda ma'lum qonun va qoidalarga amal qilish lozim. Bundan buyon **axborot** so'zini **ma'lumot** so'zidan farqlaymiz, ya'ni **axborot** so'zini umumiy tushuncha sifatida qabul qilib, **ma'lumot** deganda aniq bir belgilangan narsa yoki hodisa sifatlarini nazarda tutamiz. Ma'lumotlar bazasini yaratishda, foydalanuvchi axborotlarni turli belgilar bo'yicha tartiblashga va ixtiyoriy belgilar birikmasi bilan tanlanmani tez olishga intiladi. Buni faqat ma'lumotlar tizimlashtirilgan holda bajarish mumkin.

Tizimli almashtirish – bu ma'lumotlarni tasvirlash usullari haqidagi kelishuvni kiritishdir. Agar ma'lumotlarni tasvirlash usuli haqida kelishuv bo'lmasa, u holda ular tizimlashtirilmagan deyiladi. Tizimlashtirilmagan ma'lumotlarga misol sifatida matn fayliga yozilgan ma'lumotlarni ko'rsatish mumkin.

Ma'lumotlar bazasidan foydalanuvchilar turli amaliy dasturlar, dasturiy vositalari, predmet sohasidagi mutaxassislar bo'lishi mumkin.

Ma'lumotlar bazasining zamonaviy texnologiyasida ma'lumotlar bazasini yaratish, uni dolzarb holatda yuritishni va foydalanuvchilarga undan axborot olishini ta'minlovchi maxsus dasturiy vosita, ya'ni ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi yordami bilan markazlashtirilgan holda amalga oshirishni nazarda tutadi. Ma'lumotlar bazasi – EHM xotirasiga yozilgan ma'lum bir strukturaga ega, o'zaro bog'langan va tartiblangan ma'lumotlar

majmuasi bo'lib, u biror bir obyektning xususiyatini, holatini yoki obyektlar o'rtasidagi munosabatni ma'lum ma'noda ifodalaydi. MB foydalanuvchiga strukturalashtirilgan ma'lumotlarni saqlash va ishlatishda optimal qulaylikni yaratib beradi.

Ma'lumki ma'lumotlarni kiritish va ularni qayta ishlash jarayoni katta hajmdagi ish bo'lib ko'p mehnat va vaqt talab qiladi. MB bilan ishlashda undagi ma'lumotlarning aniq bir strukturagi ega bo'lishi, birinchidan foydalanuvchiga ma'lumotlarni kiritish va qayta ishlash jarayonida undagi ma'lumotlarni tartiblashtirish, ikkinchidan kerakli ma'lumotlarni izlash va tez ajratib olish kabi qulayliklarni tug'diradi. MB tushunchasi fanga kirib kelgo'nga qadar, ma'lumotlardan turli ko'rinishlarda foydalanish juda qiyin edi. Bugungi kunda turli ko'rinishdagi ma'lumotlardan zamonaviy kompyuterlarda birgalikda foydalanish va ularni qayta ishlash masalasi hal qilindi. Kompyuterlarda saqlanadigan MB maxsus formatga ega bo'lgan muayyan tuzilmali fayl bo'lib, undagi ma'lumotlar o'zaro bog'langan va tartiblangandir.

Demak, ma'lumotlar bazasi deganda ma'lum bir strukturada saqlanadigan ma'lumotlar to'plami tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda MB - bu ma'lum berilgan aniq bir strukturaga ega bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi maxsus formatga ega bo'lgan fayldir. Ma'lumotlarni strukturalashtirish - bu shunchaki ma'lumotlarni tasvirlashda qandaydir moslikni kiritish usulidir. Odatda MB ma'lum bir obyekt sohasini ifodalaydi va uning ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, ularni saqlaydi va foydalanuvchiga ma'lumotlarni qayta ishlashda undan foydalanish imkonini yaratib beradi.

Ma'lumotlar bazasi – bu ma'lum bir predmet sohasiga oid tizimlashtirilgan(strukturalashtirilgan) ma'lumotlarning nomlangan to'plamidir. Ma'lumotlar bazasi - axborot tizimlarining eng asosiy tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Ma'lumotlar bazasidan foydalanish uchun foydalanuvchi ishini yengillashtirish maqsadida ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari yaratilgan. Bu tizimlar ma'lumotlar bazasini amaliy dasturlardan ajratadi.

Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) -bu dasturiy va apparat vositalarining murakkab majmuasi bo'lib, ular yordamida foydalanuvchi ma'lumotlar bazasini yaratish va shu bazadagi ma'lumotlar ustida ish yuritishi mumkin.

Juda ko‘p turdagi MBBT mavjud. Ular o‘z maxsus dasturlash tillariga ham ega bo‘lib, bu tillarga SUBD buyruqli dasturlash tillari deyiladi. MBBTga Oracle, Clipper, Paradox, FoxPro, Access va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Ma‘lumotlar bazasi tushunchasi maydon, yozuv, fayl (jadval) kabi elementlar bilan chambarchas bog‘liq. **Maydon**-bu ma‘lumotlarni mantiqiy tashkil etishni elementar birligi bo‘lib, u axborotning eng kichik va bo‘linmas birligi bo‘lgan rekvizitga mos keladi. Maydonni tasvirlash uchun quyidagi tavsiflardan foydalaniladi:

Maydon nomi, masalan, familiyasi, ismi, tug‘ilgan sana, lavozimi, ish staji, mutaxassisligi.

1-maydon nomi	2-maydon nomi	3-maydon nomi	...	N-maydon nomi
Yozuv	Yozuv	Yozuv	Yozuv	Yozuv

Ma‘lumotlar bazasi tuzulmasining asosiy elementlari:

Maydon turi, masalan, son (chislovoy), simvol (simvolʼnyy), sana/vaqt (data/vremya), mantiqiy (logicheskiy).

Maydon uzunligi (o‘lchami), masalan, eng ko‘p simvollar sig‘imi;

Maydon aniqligi, (son tipidagi ma‘lumotlar uchun) masalan, sonning o‘nlik kasr qismini aks ettirish uchun o‘nlik raqamdan to‘rtta. **Yozuv** –bu mantiqiy bog‘langan maydonlar to‘plami. Yozuv tuzilishi uchun uning tarkibiga kiruvchi maydonlar tarkibi va joylashish ketma-ketligi bilan aniqlanib, ularni har biri ichida elementar **yozuvlarning nusxasi** deb ataladi. Yozuv obyektning biror bir elementi haqida to‘liq ma‘lumotni ifodalaydi.

Fayl (jadval) -bu bir xil tuzilmaga ega bo‘lgan yozuvning nusxalar to‘plamidir. U o‘zicha har bir maydonda qiymatga ega. *Misol* . Student faylidagi (jadvalidagi) yozuvlarning mantiqiy strukturasi tavsiflashga doir misolda ko‘rsatilgan. Student faylidagi yozuvning tuzilishi chiziqli bo‘lib, u o‘zgarmas uzunlikdagi yozuvlardan iborat. Yozuv maydonlari takrorlanuvchi qiymatlar guruhiga ega emas. Maydon qiymatiga murojaat uning nomeri bo‘yicha amalga oshiriladi.

Student faylidagi yozuvlar mantiqiy tuzilishini tavsifi.

Fayl nomi Student					
Maydon		Kalit belgisi	Maydon formati		
Nomni belgilash	To‘liq nomlanish (rekvizit)		Tip	Uzunligi	Aniqligi
Nomer	Talaba reyting daftarchasi nomeri	*	simvol	10	
Famil	Talaba familiyasi		simvol	10	
Ismi	Talaba ismi		simvol	8	
Ota_ismi	Talaba otasi ismi		simvol	10	
T_kun	Talabaning tug‘ilgan sanasi		sana	8	
O‘rta_baho	Talabaning o‘rtacha bahosi		son	3	2

Har bir MB jadvali o‘zining birlamchi kalitiga ega bo‘lishi mumkin. **Birlamchi kalit** deganda yozuvlar qaytarilmasligini ta‘minlovchi maydon (polya) yoki maydonlar guruhi tushiniladi. Birlamchi kalit sifatida ishlatiladigan maydon yoki maydonlar guruhi, bir xil yozuvga ega bo‘lmaslik shartini bajarishi kerak. Boshqa maydonlarda bir xil yozuvlar takrorlanishi mumkin. Shu sabab ular birlamchi kalit bo‘la olmaydi. Birlamchi kalit qisqa va sonli maydonlardan tashkil topishi maqsadga muvofiqdir. MB jadvaliga birlamchi kalitni kiritishdan maqsad, jadvaldagi ma‘lumotlarni izlash, tartiblashtirish va tanlab olishda qulaylikni beradi. Birlamchi kalit kiritish yoki kiritmaslik foydalanuvchi tamonidan MB jadvali strukturasi tashkil qilishda aniqlanadi.

Bo‘sh jadval yordamida qaram jadvaldagi mos ma‘lumotlarni chaqirishni ta‘minlash uchun qaram jadvalda tashqi kalit tashkil qilinadi. “Bitta-ko‘pga” bog‘lanish holatida tashqi kalit bosh jadvalda tashkil qilinadi. Birinchi va ikkinchi kalitlarni aniqlashda MBBT avtomatik ravishda jadvalda indeksni quradi.

AATning konseptual modeli. Axborot tizimi foydalanuvchilarning talabiga muvofiq axborotlarni yig'ish, qayd etish, uzatish, saqlash, to'plash, qayta ishlash, tayyorlash va taqdim etishga mo'ljallangan. Konseptual nuqtai nazardan qaraganda, axborot tizimi – bu operatsiyani bajaruvchi tizim va boshqaruvchi tizim o'rtasidagi vositachi sanaladi. Axborot-kommunikasiya texnologiyalari axborot tizimi ichidagi texnologiya sanaladi. Axborot tizimi tizimdagi ma'lumotlar, axborotlar bilan operatsiyalarni amalga oshiradi. Axborot tegishli muammoga qaratilgan bo'lib qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Axborot hal etilishi lozim bo'lgan vazifaga muvofiq va ushbu vazifani hal etuvchi xodimning qobiliyatiga muvofiq qayta ishlanadi.

Axborot tizimining funksional modeli. Axborot tizimining funksional modelini quyidagicha tasavvur etish mumkin. Mazkur modeldan ko'rinib turibdiki, axborot tizimining sohasi axborot obyektlari majmuidan iborat axborot makonini ifodalaydi. Umuman olganda axborot makoni bir xilda emas, chunki unda axborotlarning yuzaga kelishi, tashkil etilishi va joylashtirilishi jihatidan farqlanuvchi axborot obyektlarini o'zida saqlaydi. Tizim orqali barcha axborotlarning yuzaga kelishini quyidagi asosiy proseduralarga ajratish mumkin: saqlash, qidirish, qayta ishlash, kiritish va chiqarish. Birinchi uchtasi ichki bosqich sanaladi, to'rtinchi va beshinchilari esa mazkur tizim bilan axborot manbai va tashqi muhit o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi. 1 - axborotni tashkil etish, saqlash va taqdim etish tizimi; 2 - axborotni kiritish, yangilash va tuzatish tizimi.

Axborot muhiti. Axborot muhiti o'zaro bog'langan uchta tarkibiy qismni o'z ichiga oladi. Bular: foydalanuvchining axborot tuzilmasi, axborot-kommunikasiya texnologiyalari, boshqaruvning ishtirok etuvchi obyektlari. Axborot infratuzilmasi axborotlarni o'z maqsadlariga erishish uchun foydalanadi. Axborot-kommunikasiya texnologiyalari foydalanuvchilarni zarur texnologiyalar bilan ta'minlash vositasi sanaladi. Axborot infratuzilmasi doirasida axborot-kommunikasiya texnologiyalari foydalanuvchilari ham o'zaro harakatlanuvchi o'ziga xos muhit sifatida ko'rib chiqiladi. Foydalanuvchi kerakli axborotlarni olish uchun rasmiy (formal) va norasmiy axborot tizimlari yordamida uning manbaiga murojat qilishi

lozim. Tashqi manbaga rasmiy tizim orqali ko‘rib boriladi. Bu tizim axborotlarni raqam va matnli ma‘lumot (statistik hisobotlar, kitob, jurnal, xabar va hakazo) ko‘rinishida taqdim etadi. Ichki manbaga murojat qilish axborot- kommunikasiya texnologiyalari komponentlari - kompyuterlar, tizimli va amaliy dasturiy ta‘minot hamda zarur hollarda kommunikasiya vositalari yordamida amalga oshiriladi. Ichki manbalar norasmiy tizim vositasida ma‘lumotlar bazasidan so‘rovga javob tariqasida foydalanuvchini axborot bilan ta‘minlaydi. Foydalanuvchi rasmiy va norasmiy tizimga suyanib ijtimoiy faoliyat, korxonalar va tashkilot ishini tavsiflovchi axborotlarni oladi. An‘anaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari rivojlanishi ikki an‘anaviy segment ma‘lumot va matndan tashqari, yana qo‘shimcha ikkita segment-tasvir va nutqni qayta ishlashni ta‘minlaydi. Axborot muhiti axborotlarni qayta ishlash, qabul qilish, o‘tkazish va qidirish qobiliyatiga ko‘ra qismlarga bo‘linadi. O‘z navbatida, qayta ishlash qobiliyati insonning axborotlarni qabul qilish imkoniyatiga ko‘ra aniqlanadi. Ayrim hollarda axborot shakl, hajm va hakazo belgilar bo‘yicha tarkiblashtirishni talab qiladi. Qayd etish lozimki, foydalanuvchi axborot manbaiga muhtoj bo‘ladi. Chunki u axborotlarni uyg‘unlashtirishga qancha ko‘p vaqt va kuch sarflasa, samaradorlik ham shuncha kam bo‘ladi. Foydalanuvchining faoliyat samaradorligini oshirish uchun axborotlarni integrallash jarayonini turli yo‘llar bilan amalga oshirish mumkin. Integrallash jarayonining darajasini belgilashni yangi axborot-kommunikasiya texnologiyalari SHK, MBBTlar ta‘minlaydi. Asosiy urg‘u turli xildagi axborotlarni qayta ishlash imkonini beradigan va o‘z ichiga integrallashgan ma‘lumotlarni qayta ishlash vositalari, ma‘lumotlar bazalarini boshqarish tizimi, aloqa vositalari va matnli prosessorlarni oluvchi amaliy dasturiy ta‘minotga qaratiladi. Axborot tizimining namunaviy tarkibi. Avtomatlashtirilgan axborot tizimiga quyidagilar kiradi: odam(xodim), texnik vositalar, axborot va dasturiy ta‘minot. Ular birgalikda boshqaruv usullari uchun ma‘lumotlarni qayta ishlaydi.

Axborot tizimining namunaviy tarkibi:

- avtomatlashtirilgan axborot tizimi
- texnik vositalar Dasturiy ta‘minoti
- boshqaruv usullari
- tizimli dasturiy ta‘minoti

- amaliy dasturiy ta‘minoti
- boshqaruv modeli Inson (xodim)
- axborot ta‘minoti

Avtomatlashtirilgan axborot tizimi tuzilmasi.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimi ta‘minlovchi va funksional qismlarga ega. Ta‘minlovchi qism axborot, texnik, matematik, dasturiy, tashkiliy, xuquqiy, uslubiy, ergonomik, psixologik va lingvistik ta‘minotdan iborat bo‘ladi.

Axborot ta‘minoti – tashkilotda aylanib yuruvchi axborotlarni tashkil etish shakli, joylashtirilish hajmi (axborotlarni tasniflash va kodlashtirish, hujjatlarni unifikasiyalashtirish tizimi, axborot oqimlarining yagona tizimi) bo‘yicha loyiha qarorlarining shuningdek, ma‘lumotlar bazasi tuzilish uslubining majmuidir. U ko‘rsatkichlarni, ma‘lumotnomalarni axborotni tasniflovchi hujjatlarning unifikasiyalashgan tizimini, tashuvchi vositalardagi axborotlarni o‘z ichiga oladi.

Texnik ta‘minot.

Texnik ta‘minot – axborot tizimlari ishi uchun mo‘ljallangan texnik vosita-lar kompleksi, shuningdek, ushbu vositalar va texnologik jarayonlarga tegishli hujjatlardir. *Matematik ta‘minot.*

Matematik ta‘minot – axborot tizimlarida vazifalarni hal etishda foydalaniladigan axborotlarni qayta ishlash algoritmi va modellari, matematik uslublari majmui.

Dasturiy ta‘minot – bu axborot tizimlarining maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun dasturlar majmui, shuningdek texnik vositalar kompleksining me‘yorida ishlab turishi demakdir. Dasturiy ta‘minot tarkibiga umumiy tizimi va maxsus dasturli mahsulotlar, shuningdek texnik hujjatlar, jumladan: operasion tizimlar, dasturlash tizimi, dasturchining asbob-uskuna vositasi, test va tashhis dasturlari, telekommunikasiyaning dasturiy vositasi, axborotlarni himoyalash, funksional dasturiy ta‘minot (avtomatlashtirilgan ish joylari, ma‘lumotlar bazalarini boshqarish tizimi va hokazo).

Umumiy tizimli dasturiy ta‘minot. Ularga foydalanuvchiga mo‘ljallangan va axborotlarni qayta ishlashning an‘anaviy vazifalarini hal etish uchun belgilangan dasturlar kompleksi kiradi. Ular

kompyuterlarning imkoniyatlarini kengaytirish, ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonlarini boshqarish va nazorat qilishga xizmat qiladi.

Maxsus dasturiy ta'minot. Aniq bir dasturiy tizimni yaratishda ishlab chiqilgan dasturlar majmuini ifoda qiladi. Uning tarkibiga turli darajada ishlab chiqilgan:

- texnik ta'minot
- matematik ta'minot
- lingvistik ta'minot
- dasturiy ta'minot
- axborot ta'minoti
- tashkiliy Uslubiy
- huquqiy Ergonomik
- psixologik
- Ishlab chiqarish
- reja
- hisob-kitob
- marketing
- xodimlar
- ombor
- transport
- ta'minlovchi qism
- funktsional qism

modellar, ma'lum bir obyektning ishlashini aks ettiruvchi amaliy dasturlar paketi kiradi. Uslubiy ta'minot va tashkiliy ta'minot – axborot tizimlarini ishga tushirish va ishlatish jarayonida axborot tizimi xodimlarining texnik vositalar bilan va o'zaro ta'sirini belgilovchi metodlar, vositalar va hujjatlar majmuidir.

Ergonomik ta'minot (sharoit) – ish joylariga, axborot modellariga, xodimning ish faoliyatiga nisbatan turli ergonomik talablardan iborat hujjatlar, ularni amalga oshirish usullari to'plamidir. Maqsad – xodim ishining yuqori samaradorligini ta'minlash. **Huquqiy ta'minot** – axborot tizimlarining huquqiy maqomi va uni ishga tushirishni belgilovchi huquqiy me'yorlar majmuidir. Axborotlarni olish qayta o'zgartirish va foydalanish tartibi belgilab qo'yiladi. Huquqiy ta'minotning asosiy maqsadi qonunchilikni mustahkamlash sanaladi. Huquqiy ta'minot tarkibiga qonunlar, farmoyish, hukumat

organlari qarorlari, buyruqlari, yo‘riqnomalari va vazirliklar, idoralar, mahalliy hukumat organlarining boshqa me‘yoriy hujjatlari kiradi. Axborot tizimlarining funksional qismi axborot tizimlarining vazifa va topshiriqlari bajarilishini ta‘minlaydi. Amalda bu yerda tashkilotni boshqarish tizimining modeli saqlanadi. Mazkur tizim doirasida boshqaruv maqsadlarining funksiyalariga funksiyalarning esa axborot tizimi kenja tizimiga o‘zgarishi ro‘y beradi. Kenja tizimlar vazifalarni amalga oshiradi. Ular tizimning biror bir belgisiga ko‘ra ajratib ko‘rsatilgan qismidir. Odatda axborot tizimlarida funksional qism funksional belgilariga ko‘ra kenja tizimlarga bo‘linadi:

- Boshqaruv darajasi(oliy, o‘rta, quyi);
- Boshqariladigan resurs turi(moddiy, mehnat, moliyaviy va hakazo);
- Qo‘llanish sohasi (bank, jamg‘arma bozori va hakazo);
- Boshqaruv ishi va davri.

Shuni qayd etish lozimki, avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining funksional qismi tarkibi va mazmuni ma‘lum bir obyektga bog‘liq. Axborot tizimlarining ta‘minlovchi qismi tarkibi va mazmuni turli obyektlar uchun bir xilda bo‘ladi.

Nazorat savollari

1. Maydon uzunligi nima?
2. Obyekt ga tarif bering.
3. Obyektlar atributlariga misollar keltiring.
4. MB administrator deganda nimani tushunasiz?
5. Ma‘lumotlar banki tushunchasiga ta‘rif bering.
6. Ma‘lumotlar Bazasini ishlatish afzalliklari sanang.
- 7.

1.2. Ma‘lumot bazasi tizimining arxitekturasi va uch bosqichli arxitektura

Tarmoqlangan tizimlar asosiy tushunchalari. Markazlashgan ma‘lumotlar bazasi bir kompyuter xotirasida saqlanuvchi ma‘lumotlar bazasidir.

Taqsimlangan ma‘lumotlar bazasi– bu tarmoq orqali o‘zaro bog‘langan bir necha kompyuter xotirasida saqlanuvchi ma‘lumotlar bazasidir. Tarmoq xar bir tuguni o‘z ma‘lumotlar

bazasiga ega bo'lishi mumkin yoki ma'lumotlar bazasi bir qismini saqlashi mumkin lekin foydalanuvchi uchun yagona ma'lumotlar bazasi bo'lib ko'rinishi lozim

Taqsimlangan ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi taqsimlangan dasturiy tizimdir. Lekin foydalanuvchi yagona tizim sifatida foydalanishi lozim.

Teng darajali tarmoqlar - tarmoqqa ulangan barcha kompyuterlar teng xuquqli. Bunday tarmoq *bir xil martabali* (peer-to-peer) tarmoq deb ataladi.

Tarmoq va fayl serverli texnologiya («fayl-server» arxitektura). Qo'yilgan masalalar murakkabligining oshishi, shaxsiy kompyuterlar va lokal xisoblash tarmoqlarining paydo bo'lishi yangi «fayl-server» arxitekturani paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Tarmoq orqali murojat qilish mumkin bo'lgan ma'lumotlar bazasining ushbu arxitekturasida tarmoqdagi bitta kompyuter server sifatida ajratilgan va unda ma'lumotlar bazasining fayllari joylashtirilgan. Foydalanuvchilarning so'roviga mos xolda fayllar fayl-serverdan foydalanuvchilarning ishchi stantsiyalariga uzatilgan va u erda ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bog'liq asosiy ishlar bajarilgan. Bunda markaziy server ma'lumotlarni qayta ishlashda qatnashmasdan faqat fayllarni saqlovchi vazifasini bajargan

Tarmoqlangan ma'lumotlarni boshqarish tizimlari. «Mijoz – server» arxitekturasi quyidagicha qurilgan:

- Ma'lumotlar bazasi fayllar to'plami shaklida maxsus kompyuterning (tarmoq serveri) qattiq diskida joylashadi.
- MBBT ham tarmoq serverida joylashadi.
- Mijoz kompyuterlaridan iborat bo'lgan lokal tarmoq mavjud bo'lib, xar bir kompyuterda MB bilan ishlovchi mijoz dasturi o'rnatilgan.
- Har bir mijoz kompyuterda foydalanuvchilar dasturni ishga tushirish imkoniga ega. Dasturning foydalanuvchi interfeysi yordamida foydalanuvchilar ma'lumotlarni tanlash/yangilash uchun serverdagi MB ga murojaat qiladi. Murojaat qilish uchun maxsus SQL so'rovlar tili ishlatiladi, ya'ni serverga faqat so'rov matni jo'natiladi.

- MBBT da serverdagi MB ning fizik strukturasi xaqidagi ma'lumotlar saqlanadi.

- MBBT serverdagi ma'lumotlarga murojaatni qayd qiladi va serverda

ma'lumotlarni qayta ishlash amallari bajariladi va natija mijoz kompyuteriga yuboriladi. SHu tarzda MBBT natijalarni mijoz dasturiga yuboradi. Dastur esa o'zidagi foydalanuvchi interfeysi yordamida natijalarni tasvirlab beradi. Bajariladigan funktsiyalar server va mijoz o'rtasida taqsimlanishi:

Server har doim kutish xolatida bo'ladi, u mijozlardan so'rovlar kutgan xolda, tarmoqni domiy ravishda *eshitib* (listen) turadi.

Mijoz server bilan bog'lanadi va unga ko'rsatilishi kerak bo'lgan xizmatlar, masalan, kerakli fayl nomi, bayon etilgan *so'rov* (request) jo'natadi.

Server so'rovni qayta ishlaydi va javob (response) jo'natadi.

Bundan keyin aloqa uzilishi yoki davom etishi mumkin. Bu jarayon *sessiya* (session) deb ataladigan aloqa seansini tashkil etadi.

Dastur-serverlarni bir biridan farqlash uchun dastur-serverga *port nomeri* (port) beriladi. Bu oddiy musbat butun son bo'lib, ixtiyoriy bo'lishi mumkin, ammo keng tarqalgan protokollar uchun standart raqamlar beriladi.

Masalan, elektron pochta portining standart raqami 25, fayllarni uzatish — 21, Web-server — 80. Standart raqamlar 0 dan 1023 gacha bo'lgan oraliqda bo'ladi. 1024 dan boshlab, 65 535 gacha bo'lgan sonlarni xususiy portlarni raqamlash uchun ishlatish mumkin.

Server yukini teng taqsimlash uchun, ko'p xollarda bir necha portlar bir xil turdagi dastur serverlar tomonidan tinglanadi. Web-server, 80 raqamli portdan tashqari, 8080, 8001 va boshqa portlarni ham tinglashi mumkin.

Tarmoqlangan tizimlarda ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalari. Uch zvenoli (ko'p zvenoli) «mijoz – server» arxitektura. Uch zvenoli (ba'zida ko'p zvenoli) arxitektura (N-tier yoki multi-tier) «mijoz-server» texnologiyasining rivojlangan va takomillashtirilgan shaklini ifodalaydi. «Mijoz – server» arxitekturasi ikkita zvenodan

tashkil topgan: birinchi zveno – mijoz dasturi, ikkinchi zveno – MB serveri + MB ning o‘zi.

Uch zvenoli arxitektura bu butunicha biznes-logika, oldin mijoz dastur bo‘lgan zveno aloxida ilovalar zvenosiga kiritiladi. Bunda mijoz dasturi sifatida faqat foydalanuvchi interfeysi qoladi. Unda mijoz ilovasi sifatida Web-brauzer ishlatiladi. Uch zvenoli arxitekturadan foydalanganda biznes – logika o‘zgarganda mijoz dasturlarinin o‘zgartirish va barcha foydalanuvchilarni uchun yangilash zarur emas. Bundan tashqari foydalanuvchi kompyuterining apparaturasiga bo‘lgan talab keskin pasayadi.

Uch zvenoli arxitekturaning ishlash tartibi quyidagicha qurilgan:

- Ma’lumotlar bazasi fayllar to‘plami shaklida maxsus ajratilgan kompyuterning (tarmoq serveri) qattiq diskida joylashadi.

- MBBT ham tarmoq serverida joylashadi.

- Maxsus ajratilgan ilovalar serveri mavjud bo‘lib, unda ishbiarmon doiraning (biznes – logika) dasturiy ta’minoti joylashadi.

- Ko‘p sonli mijoz kompyuterlari mavjud va ularda "kichik mijoz"

deb ataluvchi mijoz dasturi o‘rnatilgan bo‘lib ular foydalanuvchi interfeysini xosil qiladi.

- Har bir mijoz kompyuterida foydalanuvchilar kichik – mijoz dasturini ishga tushirish imkoniga ega. Bu dastur yaratgan foydalanuvchi interfeysi yordamida foydalanuvchilar ilovalar serveridagi ishbiarmon doiraning dasturiy ta’minotiga murojaat etadi.

- MBBT da serverdagi MB ning fizik strukturasi xaqidagi ma’lumotlar saqlanadi.

- MBBT serverdagi ma’lumotlarga murojaatni bajaradi va uning natijalari ilovalar serveriga jo‘natiladi.

- Ilovalar serveri natijani mijoz dasturiga (foydalanuvchiga) jo‘natadi.

- Ilova foydalanuvchi interfeysi yordamida so‘rov natijalarini tasvirlab beradi.

Tarmoqlangan tizim arxitekturasi. Ko‘p sonli mustaqil serverlarga ega arxitektura. Xar bir server o‘z lokal ma’lumotlar bazasiga ega. Mijozlar serverlar xaqida ma’lumot va dasturiy ta’minotga ega.

O‘zaro aloqa qiluvchi serverlardan tashkil topgan arxitektura. Xar bir server qolgan serverlar xaqida ma’lumotga ega. Xar bir mijoz o‘z serveriga ega.

Bir darajali serverlardan iborat arxitektura. Xar bir kompyuterda ma’lumotlar bazasi va dasturiy ta’minot saqlanadi.

Taqsimlangan ma’lumotlar bazasi tamoyillari.. Taqsimlangan ma’lumotlar bazasi uchun Deyt K.Dj. quyidagi fundamental tamoyilni ilgari surgan:

Taqsimlangan tizim foydalanuvchi uchun taqsimlanmagan tizim sifatida ko‘rinishi lozim. Bu tamoyildan quyidagi qoidalar kelib chiqadi:

1. Lokal avtonomiya. (local autonomy)

Xar bir tugundagi ma’lumotlar lokal boshqariladi. Xar bir tugundagi ma’lumotlardan mustaqil ma’lumotlar bazasi sifatida foydalaniladi.

2. Markaziy tugundan mustaqillik. (no reliance on central site)

Ideal tizimda xamma tugunlar teng va mustaqil. Xar bir tugundagi ma’lumotlar bazasi to‘liq ximoyalangan.

3. Uzluksiz amallar. (continuous operation)

Ma’lumotlarga doim murojaat qilish mumkin. Ma’lumotlar ustida amallar uzluksiz bajariladi.

4. Joylashuvdan mustaqillik. (location independence)

Ma’lumotlarga murojaat ularning joylashuviga bog‘liq emas. Bu xususiyat joylashuv shaffofligi deb xam ataladi.

5. Fragmentatsiyadan musaqillik. (fragmentation independence)

Ma’lumotlarga murojaat ularning taqimlanishiga bog‘liq emas. Bu xususiyat fragmentatsiya shaffofligi deb xam ataladi.

6. Replikatsiyadan mustaqillik. (replication independence)

Ma’lumotlarga murojaat ularning nusxalanishiga bog‘liq emas. Bu xususiyat replikatsiya shaffofligi deb xam ataladi.

7. Taqsimlangan so‘rovlarni qayta ishlash. (distributed query processing)

Taqsimlangani so‘rov lokal so‘rov bilan bir xil ishlanadi. Ixtiyoriy turdagi so‘rovlar uchun yagona til ishlatiladi.

8. Taqsimlangan tranzaktsiyalarni qayta ishlash. (distributed transaction processing)

Taqsimlangan tranzaktsiya lokal tranzaktsiya bilan bir xil ishlanadi. Xar bir tugunda ma'lumotlar yaxlitligi ta'minlanadi.

9. Apparat ta'minotdan mustaqillik. (hardware independence)

Tugunlarda ixtiyoriy turdagi kompyuterlar ishlatilishi mumkin.

Bu xossa tarmoq shaffofligi deb xam ataladi.

10. Operatsion tizimdan mustaqillik. (operating system independence)

Tugunlarda ixtiyoriy turdagi operatsion tizimlar ishlatilishi mumkin.

11. Tarmoqdan mustaqillik. (network independence)

Tugunlar orasida ixtiyoriy turdagi kanallar va protokollar ishlatilishi mumkin.

12. Ma'lumotlar bazasidan mustaqillik. (database independence)


Tugunlarda ixtiyoriy turdagi ma'lumotlarni boshqarish tizimlaridan foydalanish mumkin.

MB ni logik va fizik tasvirlash. Ma'lumotlarni tavsiflash va ular orasidagi munosabat aloqalar o'rnatish 2 xil bo'ladi:

1 Logik yoki mantiqiy;

2 Fizik;

Fizik tasvirlashda ma'lumotlar mashinani tashqi xotirasida saqlashi bilan farqlanadi. Mantiqiy tasvirlashda esa amaliy dasturchi yoki foydalanuvchi tomonidan ma'lumotlarni tasvirlash ko'rinishi tushuniladi.



Fizik bosqich – fayllarda joylashgan ma'lumotlarni tashqi axborot saqlovchilarida joylashishini belgilaydi. Bu arxitektura ma'lumotlar bilan ishlaganda mantiqiy va fizik mustaqillikni ta'minlab beradi. Mantiqiy mustaqillik bitta ilovani o'zgartirishni, shu baza bilan ishlaydigan boshqa ilovani o'zgartirmasdan amalga

o'shinishni bildiradi. Fizik mustaqiliylik, saqlanuvchi ma'lumotlarni bir qattiq diskdan boshqasiga ko'chirganda uni ishlash qobiliyatini saqlab qolgan holda o'tkazishni bildiradi.

Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi – *bu ma'lumotlar bazasini yaratish, ularni dolzarb holatini ta'minlash va undagi zarur axborotni topish ishlarini tashkil etish uchun mo'ljallangan dasturlar majmui va til vositasidir.* MB tashkil qilish, ularga qo'shimcha ma'lumotlarni kiritish va mavjud MBdan foydalanish uchun maxsus MBlar bilan ishlaydigan **dasturlar** zarur bo'ladi. Bunday dasturlar majmui **ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT)** deb yuritiladi. Aniqroq qilib aytganda, **MBBT**–bu ko'plab foydalanuvchilar tomonidan MBni yaratish, o'nga qo'shimcha ma'lumotlarni kiritish va MBni birgalikda ishlatish uchun zarur bo'lgan dasturlar majmuidir. MBBTning tarkibida asosiy komponenti–bu *ma'lumotlar* bo'lsa, boshqa komponenti–*foydalanuvchilar*, **hardware**- texnik va **software**-dasturiy ta'minoti hisoblanadi. **Hardware** tashqi qo'shimcha xotiradan (disk, magnit lentasi) iborat bo'lsa, dastur qismi esa MB bilan foydalanuvchi o'rtasidagi muloqotni tashkil qilishni amalga oshiradi. MBning tuzilishi o'rganilayotgan ob'ektning ma'lumotlari ko'rinishi, ma'nosi, tuzilishi va hajmiga bog'liq bo'ladi. Odatda, foydalanuvchilar quyidagi kategoriyalarga bo'linadilar:

- foydalanuvchi-dastur tuzuvchi,
- tizimli dastur tuzuvchi,
- ma'lumotlar bazasi administratori.

Bunda dastur tuzgan **foydalanuvchi MBBT** uchun yozgan dasturiga javob beradi, **tizimli dastur tuzuvchi** esa butun tizimning ishlashi uchun javobgar hisoblanadi. U holda, **MB administratori** tizimning saqlanish holatiga va ishonchliligiga javob beradi. Insoniyat tomonidan katta miqdordagi bilimning to'planishi, turli xil axborotlarni saqlash masalasini hal qilishni talab etadi. Bunda, axborotlarni saqlash yagona maqsad hisoblanmaydi, balki u kerakli ma'lumotlardan kerakli vaqtda foydalana olish, turli xujjatlarni qayta ishlashga mo'ljallangan. Hozirgi kunda bir kancha **ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi** yaratilgan: REBUS, KARAT, SUBDQ, DBASE, FOXBASE, FOXRRO, ACCESS va boshqalar. Bu tizimlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Ma'lumotlar bazasida joylashgan ma'lumotlarni ko'rish
- Ma'lumotlar bazasiga yangi yozuvlarni kiritish
- Ma'lumotlar bazasining yozuvlarini taxrirlash
- Ma'lumotlar bazasidan tegishli hisobotlarni olish
- Ma'lumotlar bazasining yozuvlaridan nusxa olish va boshqalar.

Har bir tizim bir-biridan buyruqning bajarilish tezligi va miqdori bilan farqlanadi. Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari bir vaqtning o'zida to'qqiz xil turdagi fayllar bilan ish yuritadi. Xotirada saqlanayotgan har bir fayl universal nomga ega bo'lib, fayl nomi va fayl turidan tashkil topadi. **Fayl nomi** foydalanuvchi tomonidan kiritilsa, faylning turi foydalanayotgan buyruqqa ko'ra tizim tomonidan avtomatik ravishda o'rnatilgan. Ma'lumotlar bazasi fayllari quyidagi turlarga ega:

- dbt - ma'lumotlar bazasining xotira fayli;
- dbf - ma'lumotlar bazasining aktiv fayli;
- ndx - ma'lumotlar bazasining tartiblashgan fayli;
- mem - xotira faylining ishchi fayli;
- rrg - ma'lumotlar bazasining buyruqli fayli;
- fmt - ma'lumotlar bazasining formatlashgan fayli;
- ebe - ma'lumotlar bazasining ko'rsatkichli fayli;
- frm - ma'lumotlar bazasining hisobot fayli;
- txt - ma'lumotlar bazasining matnli fayli;

Ma'lumotlar bazasining aktiv fayli foydalanuvchi tomonidan kiritilgan barcha axborotlarni o'zida saqlaydi. Har bir fayllar bir milliarddan ortiq yozuvni saqlashi mumkin. Bir yozuvda 128 ta ustunni ifodalash mumkin. Ma'lumotlar bazasi bilan ish yuritishda xotira qismini 15 ta oblastga ajratish mumkin va maxsus buyruqlar yordamida har bir oblastga alohida faylni chaqirib maxsus ishlarni bajarish mumkin. Ya'ni, yangi ma'lumotlarni kiritish, ortiqcha ma'lumotlarni o'chirish, nusxa olish, hisobot ishlarini amalga oshirish va boshqalar. Bundan tashqari, oblastlarga chaqirilgan fayllarni o'zaro bog'lash, ya'ni biriktirish mumkin. Fayllarni biriktirishda faqat ikkita soha qatnashadi. Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlarini tegishli buyruqlar bilan taxminlanadi. MBBT shunday dastur qobig'iki, uning yordamida jadvallarni strukturasi, jadvallar orasidagi bog'lanish, jadvallarni

ma'lumotlar bilan to'ldirgandan keyin, uning yordamida MB yaratiladigan programma vositasidir. Shu munosabat bilan MBBT bir qancha tarkibiy qismlardan iborat. Dasturiy vositalariga translyatorlar va MB ga ma'lumotlarni kiritadigan, qayta ishlaydigan, saqlaydigan, takomillashtiridigan, testdan o'tkazadigan, ma'lumotlarni kiritish, chiqarishni ta'minlaydigan boshqarish tizimlari kiradi. Asosiy dasturlash tili sifatida Object Pascal, C++ kabi tillarni ishlatiladi.

Nazorat savollari

1. Ma'lumotlar qaysi belgilari bo'yicha sinflarga ajratiladi?
2. Ma'lumotlarni logik (mantiqiy) va fizik tasvirlash nima?
3. Ma'lumot bazasini qanday uch bosqichli arxitekturalari mavjud?
4. Ma'lumotlar bazasi administratorining asosiy vazifalarini aytib bering.
5. Ma'lumotlar bazasida tasvirlar qanday saqlanadi? Misollar keltiring.
6. Ma'lumotlar bazasining uch bosqichli arxitekturasi chizmasini tasvirlang.
7. So'rovlarni qayta ishlashda MBBTning bajaradigan ishlar ketma-ketligini tavsiflab bering.

2-BOB. MA'LUMOTLAR BAZASI MODELLARI VA NORMAL FORMALAR

2.1. Ma'lumotlar bazasi modellari va mohiyat-aloqa modeli

Mashina muhitida ma'lumotlarni tashkil etish ikki pog'onadan iborat bo'lib, **mantiqiy va fizik** pog'onalar bilan harakterlanadi. Ma'lumotlarni bevosita fizik tashkil etishda ularni mashina "tashuvchisi"da joylashtirish usuli aniqlab olinadi. Zamonaviy amaliy dasturlar vositalarida ma'lumotlarni tashkil etishning bu pog'onasi avtomatik ravishda foydalanuvchi aralashuvisiz ta'minlanadi. Odatda, foydalanuvchi amaliy dasturlar vositalarining ma'lumotlarni mantiqiy tashkil etish haqidagi tushunchalar bilan operatsiyalar bajaradi. Mashina "tashuvchisi"da ma'lumotlarni mantiqiy tashkil etish, foydalanilayotgan dasturiy vositalardan va mashina muhitida ma'lumotlar bilan yuritishdan bog'liq. Ma'lumotlarni tashkil etishning mantiqiy usuli **foydalanilayotgan ma'lumotlar tuzilishining turi** va dasturiy vositalar orqali qo'llaniladigan *modelning shakli* aniqlanadi.

Ma'lumotlarning modeli - bu ma'lumotlar o'zaro bog'langan tuzilishlari va ular ustida bajariladigan operatsiyalar to'plamidir. Modelning shakli va unda foydalaniladigan ma'lumotlar tuzilishining turi dasturlash tizimi tilida foydalangan ma'lumotlarni tashkil etish va ishlov berish konsepsiyasini aks ettiradi.

Ma'lumki, aynan bir axborotni mashina ichki muhitida joylashtirish uchun ma'lumotlarning turli xil tuzilishlari va modellaridan foydalanish mumkin. Ulardan qaysi birini tanlash axborotlar bazasini yaratayotgan foydalanuvchining zimmasiga yuklatilgan bo'lib, u ko'plab omillarga bog'liq. Bu omillar qatoriga mavjud texnik va dasturiy ta'minotlar, hamda avtomatlashtirilayotgan masalalarning murakkabligi va axborotning hajmi kabilari kiradi. Ma'lumotlar modeli quyidagi tarkibiy qismdan iborat:

1. Foydalanuvchining ma'lumotlar bazasiga munosabatini namoyish etishga muljallangan ma'lumotlar tuzilmasi.

2. Ma'lumotlar tuzilishida bajarilish mumkin bo'lgan operatsiyalar.

Ular ko'rib chiqilayotgan ma'lumotlar modeli uchun ma'lumotlar tilining asosini tashkil etadi. Yaxshi ma'lumotlar tuzilmasining

o'zigina y yetarli emas. Ma'lumotlarni aniqlash tili (MAT) va ma'lumotlar bilan amallar bajarish tilining (MABT) turli operatsiyalari yordamida bu tuzilma bilan ishlash imkoniga ega bulish zarur. 3.Yaxlitlikni nazorat qilish uchun cheklashlar. Ma'lumotlar modeli uning yaxlitligini saqlash va himoya qilishga imkon beruvchi vositalar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

Mashina muhitidagi ma'lumotlarning murakkabroq modellari – **tarmoqli va ierarxik** modellar bo'lib hisoblanadi. Bu modellar ularning o'zlariga xos turdagi ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimida ishlatiladi. MBBTda ma'lumotlarni mantiqiy tashkil etish usuli ma'lumotlarning tarmoqli yoki ierarxik modeliga mos holda ko'rsatiladi. Bunday model o'zaro bog'liq obyektlarning majmuidir. Ikki obyektning aloqasi ularning bir-biriga tobeligini aks ettiradi. Tarmoqli yoki ierarxik modelida obyekt bo'lib, MBBT kiritilgan ma'lumotlar tuzilmasining asosiy turlari hisoblanadi. Turli MBBTlarda bu turdagi ma'lumotlarning tuzilmasi turlicha aniqlanishi va nomlanishi mumkin.

Modellarda ma'lumotlarning tuzilmalari. Ma'lumotlarning namunaviy tuzilmalariga quyidagilar kiradi: ma'lumotlarning elementi, ma'lumotlarning agregati, yozuv, ma'lumotlar bazasi va h.k. Bu elementlar va agregatlar o'zaro aloqada bo'lgan tuzilma bilan tavsiflanadi. Shuning uchun yozuvning tuzilmasi ierarxik harakterga ega bo'lishi mumkin. Bir xil tuzilmaga ega bo'lgan yozuv nusxalari to'plamining hammasi yozuv turini tashkil etadi.

Tarmoqli ma'lumotlar modeli. Agar munosabatdagi joriy element bir necha berilgan elementga ega bo'lsa, bunday bog'lanishlarni ierarxik strukturalar bilan tavsiflab bo'lmaydi. Bunday tuzilmalar tarmoqli graflar bilan tavsiflanadi.

Tarmoqli strukturalarida element ixtiyoriy boshqa element bilan bog'lanishi mumkin. Ya'ni, tarmoqli bir necha kichkina obyektlardan topgan yirik obyekt deb qarash mumkin.Ushbu chizmada bog'lanishlarni tarmoqli modelda tasvirlanishi keltirilgan.

Shunday qilib, tarmoqli model ma'lumotlar elementlari orasidagi xilma-xil bog'lanishlarni ixtiyoriy ko'rinishdagi grafik yordamida akslantiradi. Tarmoqli model yozuvlar to'plami va mos bog'lanishlar to'plamidan tashkil topadi. Bog'lanishlarni yaratish uchun alohida

cheklanishlar qo`yilmaydi. Misol: oddiy tarmoqli MB sxemasi sifatida quyidagini keltirish mumkin.

Ma'lumotlarning relyasion modeli. Relyasion MB kuchli nazariy fundamentga ega bo'lib, u matematik munosabatlar (otnosheniya) nazariyasiga asoslangan. Ma'lumotlarning relyasion modeli konsepsiyasi 1970 yilda E.F.Kodd tomonidan taklif qilingan bo'lib, u ma'lumotlarni tavsiflash va tasvirlashning amaliy dasturlaridan bog'liq bo'lmasligini ta'minlash masalasini hal qilish uchun xizmat qiladi.

Ma'lumotlarning relyasion modeli asosida «munosabat» tushunchasi yotib, u inglizcha relation so'zidan olingan. Ba'zi bir qoidalarga amal qilgan holda munosabatlarni ikki o'lchovli jadval ko'rinishda tasvirlash mumkin. Jadval har qanday odamga tushunarli va qulaydir. Real dunyo obyektlari haqidagi ma'lumotlarini EHM xotirasida saqlash va ular orasidagi munosabatlarni modellashtirish uchun munosabatlar (jadval) to'plamidan foydalanish mumkinligini E.F.Kodd isbotlab berdi. Masalan, «talaba» mazmunini saqlash uchun TALABA munosabatidan foydalaniladi. Bu mazmunning asosiy xususiyatlarini quyidagi jadvalning ustunlari tasvirlaydi:

2.1.Jadval. Talaba jafvali

Familiyasi I.O.	Tug'ilgan sana	Bosqich	Mutaxassisligi
Karimova M.N.	15/01/1979	4	menejement
Boltayev A.V	03/11/1978	4	Buxgalteriya.

Munosabat ustunlari **atributlar** deb ataladi va ularga nomlar beriladi. Munosabat atributlarining nomlaridan iborat ro'yxatini **munosabatlar sxemasi** deyiladi. Bizning misolimizdagi TALABA munosabatining sxemasi quyidagicha yoziladi: **TALABA (Familiyasi I.O., Tug'ilgan sana, Bosqich, Mutaxassisligi)**

Ma'lumotlarning relyasion bazasi - bu o'zaro bog'langan munosabatlar, ya'ni jadvallar to'plamidir. Har qanday munosabat (jadval) kompyuterlarning xotirasida fayl ko'rinishda joylashtiriladi. Ularning orasida quyidagi moslik mavjud:

Fayl	Jadval	Munosabat	Mazmuni
Yozuv Maydon	Satr Ustun	kortej atribut	mazmunning nusxasi atribut

Jadval hamma uchun juda qulay bo'lishi bilan bir qatorda ma'lumotlarni manipulyasiya qilishning asosiy uch operatsiyasini bajarish uchun noqulaydir, ya'ni tartiblash, indekslarning qiymatlari bo'yicha guruhlash va daraxt ko'rinishidagi parametrlar bilan ishlash. Jadvalda ushbu uch operatsiya bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Bu esa ba'zi bir operatsiyalarni bajarishda ma'lum bir qiyinchiliklarga olib keladi. Masalan, ma'lumotlarni bir parametr asosida tartiblash ikkinchi bir parametr bo'yicha tartiblashni buzib yuborishi tufayli zarur ma'lumotlarni izlab topish operatsiyasi bir parametr bo'yicha osonlashsa, boshqalari bo'yicha qiyinlashadi. Kodd taklif qilgan usulining originalligi shundan iboratki, u munosabatlarga (jadvallarga) tadbiiq qilish uchun juda chiroyli qurilgan operatsiyalar tizimini ishlab chiqdi. Ularni amalga oshirish natijasida bir munosabatni boshqa munosabat orqali hisoblab chiqish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu axborotlarni saqlanadigan va saqlanmaydigan (hisoblanadigan) qismlarga ajratish, hamda kompyuter xotirasini tejash zarur bo'lgan paytda axborotlarning saqlanmaydigan qismini saqlanadiganlar asosida hisoblab chiqish imkoniyatini beradi. Ma'lumotlarning relyasion bazasidagi munosabatlar ustida bajariladigan asosiy operatsiyalar sakkizta bo'lib, ular quyidagilardan iborat: -to'plamlar ustidagi ananaviy (traditsion) operatsiyalar, ya'ni to'plamlarning birlashmasi (yig'indisi), kesishmasi (ko'paytmasi), to'ldiruvchisi (ayirmasi), dekart ko'paytmasi, bo'lishmasi; -maxsus relyasion operatsiyalar, ya'ni proeksiyalash, bog'lanish (qo'shilish), birlashtirish (ulab qo'yish) va tanlash. Har bir ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimining samaradorligi ushbu operatsiyalarning borligi va ularni bajarish vositalarining qanchalik qulayligi bilan aniqlanadi. Relyasion MBBTda munosabatlar ustida operatsiyalar bajarish uchun mo'ljallangan tillarini ikki sinfga ajratish mumkin: *relyasion algebra tili* (RAT) va *relyasion hisob tili* (RHT).

RAT relyasion algebraga (Kodd algebrasiga, a-algebraga) asoslangan. Ma'lum tartib munosabatlar ustida operatsiyalarni ketma-

ket yozish asosida xohlagan natijaga erishish mumkin. Shuning uchun RATni *protsedurali til* deyishadi.

RHT predikatlarni hisoblab chiqishning klassik usuliga asoslangan. Ular foydalanuvchilarga so‘rovlarni yozish uchun ma‘lum qoidalar to‘plamini beradi. Bunday so‘rovlarda faqat xohlagan natija haqidagi axborotlar bo‘ladi holos. Ushbu so‘rov asosida MBBT yangi munosabatlar hosil qilish yo‘li bilan avtomatik tarzda zarur natijani beradi. Shuning uchun RHTni *protseduralimas til* deyishadi.

Ma‘lumotlar bazasini loyihalashtirishda relyasion model bilan ishlash ancha noqulayliklarga olib keladi. Shu sabab ma‘lumotlar bazasini loyihalashda har xil semantik modellar ham ishlatiladi. Ulardan eng ko‘p tarqalganlaridan biriga –**ER** modeli deyiladi. Bu model inglizcha “**Entity-relation**” deyilib, ma‘nosi “**Mohiyat-bog‘lanish**” demakdir. Bu model 1976 yil Piter Chen tamonidan kiritilgan bo‘lib u o‘ziga bir qator grafik diagrammalarini oluvchi bir necha har xil turdagi komponentalarni birlashtirgan. Piter Chen mohiyatlar to‘plami va ular orasida bog‘lanish sifatida relyasion ma‘lumotlar strukturasi interpritatsiya qilishni taklif qildi. ER - modelining asosiy komponentalari mohiyat, bog‘lanish va atribut (xossa) bo‘lib hisoblanadi.

Mohiyat -bu ma‘lumotlari ma‘lumotlar bazasida saqlanishi kerak bo‘lgan biror real yoki tasavvur qilingan obyektidir. ER modeli diagrammasida mohiyat odatda to‘rtburchak shaklida tasvirlanib, uning ichiga mohiyat nomi qo‘yiladi.

Mohiyat – bog‘lanish. Axborot mantiqiy modellar orasida eng mashhur model "mohiyat-bog‘lanish" (entity - relationship model, ER - model) modelidir. "Mohiyat-bog‘lanish" modeli asosida datalogik modellar yaratilishi mumkin. Shuning uchun eng keng tarqalgan modeldir. Lekin bu model ma‘lumotlar ustida amallar aniqlamaydi. "Mohiyat-bog‘lanish" modeli 1976 yilda Piter Chen tomonidan taklif etilgan.

Nazorat savollari

1. Ma‘lumot baza modeli nima?
2. Ierarxik (shajara) modeli ma‘lumot va uning asosiy harakteristikalarini.
3. Tarmoqli model ma‘lumot va uning asosiy harakteristikalarini.
4. PS mohiyat aloqa usulida tavsiflaganda qanday ishlar bajariladi?

5. Mosliklarni (munosabatlar) qanday turlari bor? Ularni tavsiflang.
6. Mohiyat - aloqa diagrammasi qanday quriladi?
7. Axborot tizimlarini loyihalashga infologik yondoshishni asosiy qoidalarini tushuntiring.

2.2. Relyatsion ma'lumot bazasi va ma'lumotlar bazasida munosabatlar

Ma'lumotlarning relyatsion modeli muallifi Edgar Kodd hisoblanadi.

Relyatsion model ma'lumotlarni sodda jadval ko'rinishda tasvirlashga asoslangan. Jadvallar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

1. Bir ustundagi hamma qiymatlar bir turga tegishli bo'lishi lozim;
2. Jadvalda bir xil satr ikki marta uchramaydi;
 - Jadval ustunlari **atributlar** deb ataladi va har biri alohida nomga ega bo'ladi.
 - Jadval satrlari **yozuvlar** deb ataladi.
 - Atribut aniqlanish sohasi **domen** deb ataladi.

Har bir yozuv unikalligini ta'minlovchi atribut yoki atributlar ro'yxati **birlamchi kalit** deb ataladi. Boshqa jadval birlamchi kalitini tashkil qiluvchi atribut yoki atributlar ro'yxati **tashqi kalit** deb ataladi. Jadvallar quyidagicha belgilanadi.

Jadval (atribut nomi,..., atribut nomi)

Yaxlitlik sharti. Birlamchi kalit cheklanishlari. Birlamchi kalit atributlari NULL qiymatga ega bo'lmasligi lozim.

Tashqi kalit cheklanishlari. Biror yozuvda tashqi kalit atributlari NULL qiymatga ega bo'lmasa mos jadvalda birlamchi kalit xuddi shunday qiymatli yozuvi mavjud bo'lishi kerak.

Birlamchi kalit qiymatlari o'zgartirilganda yoki o'chirilganda quyidagi qoidalar ko'rsatilishi mumkin:

CASCADE – tashqi kalit hamma satrlari o'zgartiriladi yoki o'chiriladi;

SET NULL – tashqi kalit qiymati NULL qiymat bilan almashtiriladi;

SET DEFAULT - tashqi kalit qiymati ko‘zda tutilgan qiymat bilan almashtiriladi;

NO ACTION – tashqi kalit qiymatlarini o‘zgartirish mumkin emas. Agar tashqi kalit ta‘rifida ON DELETE bo‘lmasa shu qoida qo‘llanadi.

RESTRICT birlamchi kalit ixtiyoriy satrini o‘chirish man qilinadi.

Bog‘liqlik. Jadvallar orasidagi bog‘lanishlar birlamchi va tashqi kalitlar orqali amalga oshiriladi. Har bir mohiyatga jadval mos qo‘yiladi.

Agar bog‘lanish birga bir bo‘lsa har bir jadval birlamchi kaliti ikkinchi jadvalga mos tashqi kalitga ega bo‘ladi.

Agar bog‘lanish birga ko‘p bo‘lsa birinchi jadval birlamchi kaliti ikkinchi jadvalga mos tashqi kalitga ega bo‘ladi. Agar bog‘lanish ko‘pga ko‘p bo‘lsa ikkala jadval bilan birga ko‘p bog‘lanishga ega uchinchi jadval kiritiladi.

Misol:

1- jadval. Talaba jadvali

Nomer	Familiya	Yosh	Viloyat	Guruh
1	Olimov	21	Xorazm	312-17
2	Olimov	21	Xorazm	312-17
3	Kamolov	22	Buxoro	312-16
4	Kamolov	22	Buxoro	312-17

2- jadval. Guruh jadvali

Guruh	Fakultet	Kurs
311-17	DI	1
312-16	KI	2
311-16	DI	1
312-17	KI	2

Normallashtirish. Normallashtirish deganda jadvallarni ma‘lum shartlarga mos keluvchi normal shaklga keltirishga aytiladi. Normallashtirish dekompozitsiya ya‘ni bir nechta jadvallarga ajratish yo‘li orqali amalga oshiriladi. Normal shaklga mos kelmaslik turli anomaliyalarga olib kelishi mumkin. Quyidagi anomaliyalar bo‘lishi mumkin.

Qaytarishlik anomaliyasi. Bir xil ma'lumot bir nechta satrlarda qaytarilishi mumkin. □

Yangilash anomaliyasi. Bitta satrda ma'lumot o'zgartirish uchun hamma satrlarni o'zgartirishga to'g'ri kelishi mumkin.

O'chirish anomaliyasi. Keraksiz ma'lumot o'chirilganda kerakli ma'lumot ham o'chib ketishi mumkin.

Qo'shish anomaliyasi. Kerakli ma'lumot qo'shilmasligi mumkin.

Birinchi normal forma (1NF): *Jadval birinchi normal formada deyiladi, qachonki undagi hech bir qatorning istalgan maydonda bittadan ortiq qiymat joylashmagan bo'lsa.*

Boshqacha aytganda birinchi normal forma bu har bir satr va ustun kesishmasida bitta bo'linmas atomar qiymat joylashgan jadvaldir.

Misol:

Xodimlar(Nomer, Ismi, Yoshi, Bolalar_nomi, Bolalar_Yoshi)

Bu jadvalda Bolalar_nomi, Bolalar_Yoshi atributlari ko'p qiymatli atributlar. Normallashtirish natijasida ikki jadval hosil qilinadi:

Xodimlar (Nomer, Ismi, Yoshi)

Bolalar (Nomer, Nomi, Yoshi, Xodim_nomeri)

Ikkinchi normal forma (2NF): *Jadval ikkinchi normal formada deyiladi, qachonki agar u birinchi normal formada bo'lsa va har bir birlamchi kalitga kirmagan atribut birlamchi kalit atributlariga to'liq funksional bog'liq bo'lsa.*

Agar ixtiyoriy vaqtda, bitta atribut har bir qiymatiga ikkinchi atributni bittadan ortiq bo'lmagan qiymati mos kelsa, ikkinchi atribut birinchi atributga *funksional bog'liq* deyiladi va quyidagicha belgilanadi: $A \rightarrow V$

Misol:

Buyurtma (Nomer, Maxsulot_nomi, firma, Mijoz_nomi, telefon, adres)

Bu jadvalda maxsulot va mijozga tegishli atributlar buyurtma nomeriga funksional bog'liq emas. Normallashtirish natijasida quyidagi jadvallar kelib chiqadi.

Buyurtma(Nomer, Maxsulot_nomeri, Mijoz_nomeri)

Maxsulot(Nomer, nom, firma)

Mijoz(Nomer, nom, telefon adres)

Uchinchi normal forma (3NF): *Jadval uchinchi normal formada deyiladi, qachonki u ikkinchi normal formada bo'lsa va tranzitiv bog'lanishlar bo'lmasa.*

Agar V atribut A atributga, S atribut esa V atributga bog'langan bo'lsa, ya'ni, $A \rightarrow V$ va $V \rightarrow S$ bo'lsa va $A \not\rightarrow V$, $V \not\rightarrow S$, $V \not\rightarrow A$ shartlar bajarilsa S atribut A atributga tranzitiv bog'langan deyiladi. Agar $C \rightarrow B$, bajarilsa qat'iy tranzitiv bog'lanish deyiladi.

Misol:

Xodim(Nomer, Ismi, Yoshi, Xaydovchi_Guvoxnoma_nomeri, turi, rangi)

Bu jadvalda mashina turi va rangi jadval birlamchi kaliti bo'lgan xodim nomeriga tranzitiv bog'liqdir. Normallashtirish natijasida quyidagi jadvallar kelib chiqadi.

Xodim(Nomer, Ismi, Yoshi, Xaydovchi_Guvoxnoma_nomeri)

Mashina (Xaydovchi_Guvoxnoma_nomeri, turi, rangi)

Normallashtirish algoritmi (ya'ni munosabatlarni 3NF ga keltirish algoritmi) quyidagi ko'rinishda yoritiladi:

1-qadam (1NF ga keltirish). Birinchi qadamda predmet soha tushunchasini tasvirlaydigan bitta yoki bir nechta jadvallar beriladi. Predmet soha modeli bo'yicha topilgan funksional bog'liqliklar yoziladi. Barcha jadvallar avtomatik ravishda 1NF da bo'ladi.

2-qadam (2NF ga keltirish). Agar qandaydir jadvalda atributlarning murakkab kalitga bog'liqligi topilgan bo'lsa, bu jadvalni bir nechta jadvalga quyidagi ko'rinishda ajratamiz: murakkab kalit qismiga bog'liq bo'lgan atributlar shu kalit qismi bilan birgalikda alohida jadvalga joylashtiriladi. Boshlang'ich jadvalda barcha kalitli atributlar qoladi.

Boshlang'ich jadval: $R(K1, K2, A1, \dots, An, B1, \dots, Bm)$.

Kalit: $(K1, K2)$ - murakkab.

Funksional bog'liqliklar:

□ $\{K1, K2\} \rightarrow \{A1, \dots, An, B1, \dots, Bm\}$ $\{K1\} \rightarrow \{A1, \dots, An\}$ - ba'zi atributlarni murakkab kalitning qismiga bog'liqligi.

Ajratilgan munosabatlar:

□ $R1(K1, K2, B1, \dots, Bm)$ - boshlang'ich jadvaldan qolgani.

Kalit $(K1, K2)$.

□ $R2(K1, A1, \dots, An)$ - boshlang'ich jadvaldan murakkab kalit qismi bilan olingan atributlar.

Kalit $K1$.

3-qadam (3NF ga keltirish). Agar ba'zi jadvalda ba'zi kalit bo'lmagan atributlarning boshqa ba'zi kalit bo'lmagan atributlarga bog'liqligi topilgan bo'lsa, u holda bu jadvalni bo'lishni quyidagi ko'rinishda amalga oshiramiz: boshqa kalit bo'lmagan atributlarga bog'liq kalit bo'lmagan atributlar alohida jadvallarga joylashtiriladi. Yangi jadvalda funksional bog'liqlik determinanti kalit hisoblanadi:

Boshlang'ich munosabat: $R(K, A_1, \dots, A_n, B_1, \dots, B_m)$.

Kalit: K .

Funksional bog'liqliklar:

$K \rightarrow \{A_1, \dots, A_n, B_1, \dots, B_m\}$ - barcha atributlarni jadval kalitiga bog'liqligi.

$\{A_1, \dots, A_n\} \rightarrow \{B_1, \dots, B_m\}$ - ba'zi kalit bo'lmagan atributlarning boshqa kalit bo'lmagan atributlarga bog'liqligi.

Ajratilgan jadvallar:

$R_1(K, A_1, \dots, A_n)$ - boshlang'ich jadvaldan qolgani.

Kalit K .

$R_2(A_1, \dots, A_n, B_1, \dots, B_m)$ - boshlang'ich jadvaldan funksional bog'liqlik determinanti bilan olingan atributlar. Kalit $\{A_1, \dots, A_n\}$.

Tarmoqlangan tizimlarda ma'lumotlarni taqsimlash usullari

Biror R munosabat berilgan. Bu munosabatni shunday R_1, \dots, R_n munosabatlarga ajratish lozimki berilgan samaradorlik kriteriyalariga javob bersin. Samaradorlik kriteriyasi bo'lib, murojaat vaqti yoki kompyuterlar yuklanganligi kabi xossalar ishlatilishi mumkin.

Fragmentatsiya korrekt, agar to'liq bo'lsa ya'ni kesmalarni o'z ichiga olmasa va qayta tiklanishi mumkin bo'lsa.

R munosabatni R_1, R_2, \dots, R_n fragmentlarga dekompozitsiyasi to'liq bo'ladi agar R bilan xar bir ma'lumotlar elementi biror R_i munosabatga tegishli bo'lsa. Dekompozitsiya qayta tiklanuvchan bo'ladi agar shunday relyatsion ifoda $\varphi(R_1, R_2, \dots, R_n)$ mavjud bo'lsaki $R = \varphi(R_1, R_2, \dots, R_n)$ bo'lsa.

Dekompozitsiya kesmalarga ega bo'lmaydi agar R bilan xar bir ma'lumotlar elementi faqat bitta fragmentda saqlansa.

Munosabat fragmentatsiyasi uch turi mavjud:

- gorizontal;
- vertikal;
- aralash.

Gorizontaal fragmentatsiya. Gorizontaal fragmentatsiya kortejlarni fragmentlarga taqsimlashdan iborat. Taqsimlash biror predikat asosida amalga oshiriladi

Misol.

LOYIXA (Kod, Nom, Tur, Narx).

Predikatlar

{ Narx < 300000. Narx = 300000. Narx > 300000 }

Kesmalarga ega bo'lmagan to'liq taqsimlashni amalga oshiradi

Predikatlar

{ Narx < 300000. Narx > 200000 }

Kesmalarga ega to'liq taqsimlashni amalga oshiradi

Predikat

{ Narx < 200. Narx > 300 }

Kesmalarga ega bo'lmagan to'liq bo'lmagan taqsimlashni amalga oshiradi

Gorizontaal fragmentatsiya avfzalliklari:

- munosabat fragmentlarini parallel qayta ishlashga imkon beradi;
- kortejlarni eng ko'p murojaat qilinadigan tugunlarga joylashtirishga imkon beradi.

Vertikal fragmentatsiya. Vertikal fragmentatsiyada munosabatlar bir necha proektsiyalarga ajratiladi, ya'ni munosabat sxemasi bir necha ostki sxemalarga ajratiladi.

Tiklash uchun xar bir ostki sxema birlamchi kalitni o'z ichiga olishi lozim. Boshqa usulda xar bir fragmentga avtomatik kortej identifikatori qo'shiladi. Bu identifikator qiymati tizim tomonidan avtomatik o'rnatiladi.

Aralash fragmentatsiya. Aralash fragmentatsiya ketma ket vertikal va gorizontaal fragmentatsiyalarni qo'llashdan iborat.

Ma'lumotlarni tugunlarga taqsimlash.

F fragmentlarni S tarmoq Q tugunlari bo'yicha optimal taqsimlash usulini topish lozim.

Optimallikni aniqlaganda quyidagi parametrlarni xisobga olish lozim:

- ma'lumotlarni uzatish, saqlash va qayta ishlash narxi;
- vaqt xarakteristikalarini;
- samaradorlik;
- cheklanishlar masalan tarmoq tuguni sig'imi.

Fragmentlarni tugunlar bo'yicha taqsimlash uchun quyidagi ma'lumotlar lozim:

- ma'lumotlar bazasi xaqida va fragmentlar kattalikasi;
- ilovalar xaqida (joylashuvi, foydalanish chastotalari);
- tugunlar xaqidai (tugunlarda ma'lumotlar saqlash va qayta ishlash narxi);
- tarmoq xaqida (narxi va ma'lumotlarni uzatish vaqtlari).

Ma'lumotlarni fragmentatsiyasi va replikatsiyasi. Replikatsiya – bitta ma'lumot nusxalarini izlash tezligini oshirish va ishonchlilikni ta'minlash uchun turli tugunlarda saqlash mexanizmiga aytiladi. Munosabat yoki fragment replikatsiya qilingan deyiladi agar uning nusxalari bir yoki bir necha tugunlarda saqlansa. Nusxalarni replika deb ataladi. To'liq replikatsiyada nusxalar xamma tugunlarda saqlanadi. Butun ma'lumotlar bazasi xamma tugunlarda saqlanishi mumkn. Bu xolda ma'lumotlar bazasi to'liq replikatsiya qilingan deyiladi.

Replikatsiya avfzalliklari:

- xavfsizlik (R munosabat saqlanayotgan tugun ishdan chiqsa, boshqa tugunlarda murojaat qilish mumkin);
- parallelizm (R munosabatga nisbatan so'rovlar xamma replikalari bo'yicha parallellanishi mumkin);
- ma'lumotlarni uzatish narxini kamayishi (R munosabatga replikalari mavjud xamma tugunlarda murojaat qilish mumkin).

Replikatsiya kamchiliklari:

- ma'lumotlarni saqlash, yaratish va tiklash narxi oshadi;
- resurslarga talab oshadi;
- ma'lumotlarni yaxlitligini saqlash qiyinlashadi, masalan bir vaqtni o'zida bitta munosabat xamma replikalarini tiklash.

Replikatsiya mexanizmlari.

Replikatsiyani amalga oshirish uchun uchta server ishlatiladi: noshir, distribyutor va o'quvchi.

Noshir deb o'zidagi ma'lumotlarni boshqa serverlarga nusxalash uchun taqdim etuvchi serverga aytiladi. Nusxa tayyorlashdan tashqari noshir ma'lumotlar bazasiga kiritilgan o'zgarishlarni kuzatib boradi va yangi nusxa tayyorlaydi.

Distribyutor noshir tayyorlagan nashrlarni nusxalaydi va o'quvchilarga jo'natadi.

Distribyutor aloxida server yoki noshir yoki o'quvchi uchun ajratilgan server bo'lishi mumkin. Distribyutor funktsiyalari replikasiya usullariga bog'liq.

O'quvchi xamma nusxalarni qabul qiluvchi server. O'quvchi ma'lumotlar o'zgartirish mexanizmi farq qiladi.

Replikatsiya modellari

- momental suratlar replikasiyasi;
- tranzaksiyalar replikasiyasi.

Momental suratlar replikasiyasi eng sodda replikasiya bo'lib, momental surat deb ataluvchi ma'lumotlar to'liq nusxasi o'quvchilarga jo'natiladi. Tranzaksiyalar replikasiyasida ma'lumotlar bazasi tranzaksiyalar jurnalidan foydalaniladi. Tanlangan tranzaksiyalar bajarish ketma ketligi xaqidagi ma'lumot bilan birga distribyutor ma'lumotlar bazasiga nusxalanadi, so'ngra o'quvchi serverlarga jo'natiladi va ko'rsatilgan ketma ketlikda bajariladi.

Bu tarmoq yuklanishini kamaytiradi. O'zgarishlar soni kichik bo'lgan xajmi katta ma'lumotlar bazasida qo'llash tavsiya etiladi.

Replikatsiyalar topologiyasi.

Replikatsiyalar topologiyasi quyidagi turlari ajratiladi:

- replikasiya «bitta -ko'pga» bitta noshir va bir necha o'quvchilar;
- replikasiya «ko'p-bittaga» bir necha noshir va bitta o'quvchi;
- replikasiya «ko'p -ko'pga» bir necha noshir va bir necha o'quvchi.

KODD qoidalari

1983 yil oktyabrida E.F. Kodd ikki maqola chop ettirdi. Birinchi maqolada to'liq relyatsion ma'lumotlar bazasi qoniqtirishi lozim bo'lgan 12 qoida asoslandi. Ikkinchi maqolada dasturiy ta'minotlar shu qoidalarga mosligi taxlil etildi.

Qoida 1: Axborot qoidasi (The Information Rule):

Relyatsion bazada hamma ma'lumot mantiqiy darajada bir usulda taqdim etilishi lozim: jadvallardagi qiymatlar bilan.

Qoida 2: Ma'lumotlarga garantiyalangan murojaat (Guaranteed Access Rule):

Relyatsion ma'lumotlar bazasida har bir ma'lumot elementiga mantiqiy jadval nomi, birlamchi kalit qiymati va ustun nomi orqali murojaat qilish mumkin.

Qoida 3: NULL qiymatni sistematik qo'llash (Systematic Treatment of Null Values):

Har qanday ma'lum qiymatdan farqli NULL qiymatlar, hamma ma'lumotlar turlari uchun hamma amallar bajarilganda qo'llanishi lozim. Masalan, sonli qiymatlar uchun 0 qiymat yoki belgili qiymatlar uchun bo'sh satrdan farq qilishi lozim.

Qoida 4: Relyatsion model asosida dinamik aktiv lug'at (Active On-Line Catalog Based on the Relational Model):

Lug'at relyatsion jadval shaklida saqlanishi lozim va ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari bu jadvalga foydalanuvchi ma'lumotlari saqlanuvchi jadvalga murojjaat qilish uchun qo'llanadigan standart vositalarni qo'llash imkonini berishi lozim.

Qoida 5: Til ostki to'plami to'liqligi (Comprehensive Data Sublanguage Rule):

Relyatsion ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari juda bo'lmasa bitta quyidagi xossalarga ega tilni qo'llashi lozim:

(a) chiziqli sintaksisga ega,
(b) ham interaktiv, ham amaliy dasturlarda qo'llanishi mumkin,
(v) ma'lumotlar va tasvirlarni ta'riflash, ma'lumotlarni modifikatsiyalash (interaktiv yoki dasturiy), yaxlitlik cheklanishlarini ta'riflash, murojaatni boshqarish va tranzaksiya amallarini boshqarish (begin, commit va rollback).

Qoida 6: Tasvirlarni molifikatsiyalash qoidasi (View Updating Rule):

Nazariy jixatdan modifikatsiyalanuvchi tasvirlarni tizim ham modifikatsiyalashi lozim. Har bir modifikatsiyalanuvchi tasvirga relyatsion jadvallarga qo'llaniladigan amallar qo'llash imkoniyati mavjud bo'lishi lozim: tanlash, joylash, o'zgartirish va ma'lumotlarni o'chirish.

Qoida 7: Yuqori darajada joylash, yangilash va o'chirish (High-Level Insert, Update, and Delete):

Asosiy yoki hosila munosabat bilan bitta operand sifatida foydalanish faqat o'qish uchun emas joylash, yangilash va o'chirish amallariga ham qo'llanishi lozim. Joylash, yangilash va o'chirish

amallari relyatsion jadvallar faqat bitta emas bir nechta satrlariga qo'llanishi lozim.

Qoida 8: Ma'lumotlar fizik mustaqilligi (Physical Data Independence):

Ilovalar va terminal amallar ma'lumotlarni saqlash va murojaat usullariga bog'liq bo'lmasligi lozim.

Qoida 9: Ma'lumotlar mantiqiy mustaqilligi (Logical Data Independence):

Ilovalar va terminal amallar nazariy jixatdan ma'lumotlarni saqlovchi ixtiyoriy o'zgarishlarga bog'liq bo'lmasligi lozim. Agar normallashtirish jarayonida jadval ajratilsa ilovaga ta'sir etmasligi lozim.

Qoida 10: Yaxlitlik mustaqilligi (Integrity Independence):

Konkret ma'lumotlar bazasi yaxlitligi cheklanishlari relyatsion til ostki to'plamida tasvirlash imkoniyati mavjud bo'lishi va bu tasvir ilovalarda emas ma'lumotlar lug'atida saqlanishi lozim. Ma'lumotlar bilan ishlaydigan til kiritilayotgan ma'lumotlarni tekshirishi va ma'lumotlarning yaxlitligini saqlashi lozim.

Qoida 11: Tarqatish mustaqilligi (Distribution Independence):

Relyatsion ma'lumotlar bazasida taqsimlash mustaqildir. Ma'lumotlar bazasi tarmoqlangan ya'ni bir nechta kompyuterlar xotirasida saqlanishi mumkin, lekin bu ilova ishiga ta'sir qilmasligi lozim.

Qoida 12: Til darajalari muvofiqligi (The Nonsubversion Rule):

Agar ma'lumotlar bilan ishlash uchun quyi darajadagi til ishlatilsa, yuqori darajadagi til qo'llovchi xavfsizlik va yaxlitlik qoidalarini qo'llashi lozim. Quyi darajadagi til yordamida ma'lumotlar yaxlitligini buzish imkoniyati mavjud bo'lmasligi lozim.

3- jadval. Sotuvchilar jadvali

snum	sname	city	comm
1001	Peel	London	.12
1002	Serres	San Jose	.13
1004	Motika	London	.11
1007	Rifkin	Barcelona	.15
1003	Axelrod	New York	.10

4- jadval. Buyurtmalar jadvali

onum	amt	odate	cnum	snum
3001	18.69	10/03/1990	2008	1007
3003	767.19	10/03/1990	2001	1001
3002	1900.10	10/03/1990	2007	1004
3005	5160.45	10/03/1990	2003	1002
3006	1098.16	10/03/1990	2008	1007
3009	1713.23	10/04/1990	2002	1003
3007	75.75	10/04/1990	2004	1002
3008	4723.00	10/05/1990	2006	1001
3010	1309.95	10/06/1990	2004	1002
3011	9891.88	10/06/1990	2006	1001

5- jadval. Buyurtmachilar jadvali

cnum	cname	city	rating	snum
2001	Hoffman	London	100	1001
2002	Giovanni	Rome	200	1003
2003	Liu	San Jose	200	1002
2004	Grass	Berlin	300	1002
2006	Clemens	London	100	1001
2008	Cisneros	San Jose	300	1007
2007	Pereira	Rome	100	1004

Obyektlarni identifikatsiyalash uchun yoki barcha aytganda kompyuter xotirasida yozuvlarning o'rnini aniqlashda ma'lumot elementi ishlatiladi. Bu elementni biz **kalit** deb ataymiz. Agar kalit obyektini bir qiymatli identifikatsiyalasa, u **birlamchi kalit** deyiladi. Aks holda, **ikkilamchi kalit** deyiladi. Agar obyektlarni identifikatsiyalash uchun bir nechta atributlar talab etilsa, bunday kalit **turlangan kalit** deb ataladi. Agar A va V guruhdagi obyektlar berilgan bo'lsa, ular orasidagi quyidagi mosliklar yoki munosabatlarni o'rnatishimiz mumkin:

1. Birga – bir (1:1)munosabat. A va V obyektlar to'plami orasida 1:1munosabat o'rnatilgan deyiladi, agarda A obyektning har bir nusxasiga V obyektning bitta nusxasi mos kelsa, va aksincha, V obyektning har bir nusxasiga A obyektning bitta nusxasi mos kelsa.

2. Birga – ko'p (1:n) munosabat. A va V obyektlar to'plamida A obyektning har bir nusxasiga V obyektning bir nechta nusxasi mos kelsa, shu bilan birga V obyektning har bir nusxasiga A obyektning

bittadan ko'p bo'lmagan nusxasi mos kelsa shunday munosabat hosil bo'ladi.

3. Ko'pga – bir (n:1) munosabat A va V obyektlar to'plami orasida o'rnatilsa, unda A obyektning har bir nusxasiga V obyektning ko'pi bilan bitta nusxasi mos keladi. V obyektning nusxalari orasida shundaylari mavjudki, ularga A obyektning bir nechta nusxasi mos keladi.

4. Ko'pga – ko'p (m: n) munosabat. A va V obyektlar orasida shunday munosabat o'rnatilgan deyiladi, agarda A obyektning har bir nusxasiga V obyektini bir nechta nusxasi mos kelsa va aksincha.

Obyektlarni tahlil qilib bo'lingandan so'ng, shu obyektga qo'yiladigan boshlang'ich so'rovni ishlab chiqamiz. Avtovakzalni faoliyati iqtisodiy va texnik ko'rsatgichlar bilan bog'liq bo'lganligi uchun, yo'lovchilarga informatsion ma'lumot berganligi uchun yaratayotgan informatsion sistemamiz quyidagi so'rovlarga javob berishi kerak:

1. Har bir reys uchun nechta bilet sotilganligi va umumiy sotilgan biletlarni aniqlash;
2. Reysni nomeri bo'yicha reys haqida ma'lumotlar chiqarish;
3. Marshrutlar haqidagi zarur axborotlarni chiqarish;
4. Aniq reyslar uchun qapysi haydovchilar tayinlanganligi va ular haqida ma'lumotlar olish;
5. Avtobusni texnik xarakteristikalari haqidagi ma'lumotni olish.

Ko'rib chiqilayotgan predmet sohani obyektlari orasida quyidagi tipdagi bog'lanishlar mavjud:

- 1 1:1 – biletlar bilan reys obyektlari orasidagi bog'lanish (sotilgan);
 - 2 M:1 – marshrut va reys orasidagi bog'lanish (marshrut munosabati);
 - 3 1:M – marshrut va bekatlar orasidagi bog'lanish (bekatlar);
 - 4 1:N – reys va haydovchi orasidagi bog'lanish (tayinlash);
 - 5 M:N- haydovchi va avtobus modeli orasidagi bog'lanish (haydovchiga ruxsat berish);
 - 6 M:1 – avtobus va avtobus modeli orasidagi bog'lanish (toifa).
- Shunday qilib, ko'rilayotgan masalada asosan obyektlar aniqlanadi va ular orasidagi bog'lanish topiladi, sinflarga ajratiladi.

Nazorat savollari

1. Relyatsion ma'lumotlar modeli qanday farqlanadi?
2. Relyatsion ma'lumotlar bazasining asosiy tushunchalari.
3. Munosabat xossalriga nimalar kiradi?
4. Munosabatlar sxemasiga misollar keltiring.
5. Munosabat turlari nechta?
6. Relyatsion algebra amallarini sanab bering va misol keltiring.

2.3. Relyatsion algebra va relyatsion hisobot elementlari

Munosabat D_1, D_2, \dots, D_n domenlarda (ularning bari har xil bo'lishligi shart emas) sarlavha va tanadan iborat bo'ladi. **Munosabat darajasi** — bu uning atributlar soni.

Munosabat darajasi bitta bo'lsa *unar* deyiladi. Ikkita daraja bo'lsa — *binary* deyiladi. Uch daraja bo'lsa *ternar* va hokazo. Kardinal son yoki munosabat quvvat — bu uning kortejlar soni. Kardinal munosabatlar soni vaqt bo'yicha o'zgaradi.

Munosabat — bu to'plamlardir. To'plam esa ta'rif bo'yicha mos elementlarni o'ziga olmaydi. Aytaylik, R munosabat A_1, A_2, \dots, A_n atributlarga ega. Aytiladiki, R munosabat atributlar to'plami $K=(A_i, A_j, \dots, A_k)$ qachonki ikkita vaqtga bog'liq bo'lmagan shart bajarilsa kalit bo'lishi mumkin. Munosabatlar ustida amallar.

Munosabatlar ustida har xil amallar bajariladi. Relyatsion ma'lumotlar modelini xususiyatlaridan biri ma'lumotlarni qayta ishlashni relyatsion algebra operatorlari (amallari) yordamida amalga oshirishdir. Relyatsion algebra quyidagi 8 ta operator keng ishlatiladi. Ulardan 4tasi an'anaviy to'plamlar ustidagi amallar kiradi.

An'anaviy (qabul qilingan) amallarga quyidagilar kiradi.

1 Birlashtirish

2 Kesishuv

3 Ayirma

4 Dekart ko'paytma

Maxsus amallarga esa quyidagilari kiradi.

1 Tanlash (seleksiya)

2 Proeksiya

3 Qo'shish

4 Bo`lish

Munosabatlar ustida bajariladigan birlashtirish, kesishuv, ayiruv amallari operatorlarning tili yoki turi bo`yicha mosligini talab etadi. 2 ta munosabat tipi bo`yicha mos keladi, agarda ularda ekvivalent munosabat sxemasi bulib:

1) ulardagi har bir darajasi bir xil bo`lsa yoki ular bir xil atribut to`plamiga ega bo`lsa;

2) sxema atributlarini shunday tartiblash mumkinki, bir xil o`rinda turib solishtirilayotgan atributlari bir xil domenda aniqlangan bo`lishi kerak.

Har bir munosabatda kortejlar identifikator kalitiga ega bo`lishi kerak. Kalit quyidagi ikkita xossaga ega bo`lishi kerak:

- Kartej kalit qiymati bilan bir qiymatli ifodalanishi kerak;
- Kalitda ortiqchalik bo`lmasligi kerak.

Bu degani hech qanday atributni kalitdan olib tashlash mumkin emas.

Relyatsion MB da informatsiyalarni ortiqchaligini normallashtirish yo`li bilan kamaytiriladi. Jadvallar ustida har xil amallar bajarish mumkin. Bu amallarni tartiblab ishlab chiqqan odam Kodd. Amallarga quyidagilar kiradi:

- To`plamlar ustida birlashtirish, kesishuv, ayirma, dekart ko`paytma va bo`lish amallari kiradi.

- Maxsus relyatsion amallar, ularga: proeksiya, birlashtirish, ajratish (tanlab olish) amallari kiradi.

Munosabatlar ustida amalni bajarish uchun ishlatiladigan tillarni ikki sinfga ajratishimiz mumkin:

- c) Relyatsion algebra tillari;
- d) Relyatsion hisoblash tillari.

Munosabatlar o`z mazmuniga qarab ikki sinfga ajratiladi:

- c) Obyektli munosabatlar;
- d) Bog`lanuvchi munosabatlar;

Obyektli munosabatlarda obyektlar haqidagi munosabatlar saqlanadi. Masalan, talaba munosabati. Bog`lanish munosabatlarida asosan, obyektli munosabatlarning kalitlari saqlanadi. Kalit atributlari oddiy va murakkab bo`lishi mumkin. Agar kalit ikkita va undan ortiq atributdan tashkil topgan bo`lsa, murakkab hisoblanadi.

Relyatsion MBBT da ma'lumotlar bilan ishlash uchun bir qancha tillar yaratilgan. Ba'zi hollarda bu tillarni ma'lumotlarni qism tillari deb ataladi. MB bilan ishlovchilar bu tillarda avtomatlashtirishni 3 bosqichga bo'lishadi:

1) Eng pastki bosqich – kortej deb ataladi. Bunda dasturchi yozuvlar yoki kartijlar bilan ishlaydi.

2) Relyatsion algebra deyiladi. Bunda foydalanuvchi munosabatlar ustida yuqori bosqichli amallar to'plamini kiritadi.

3) Eng yuqori bosqich – hisoblash bosqichi.

Bunda foydalanuvchi bevosita kompyuterga maxsus tillarda murojaat qiladi va mashina bu murojaatni qabul qiladi. Relyatsion algebra amallarini operandlari sifatida doimiy yoki o'zgarmas va o'zgaruvchan munosabatlar ishlatiladi. Relyatsion algebrada 5ta amal ishlatiladi:

1) Birlashtirish , R va S munosabatlarni birlashtirish $R \cup S$ ko'rinishida berilib, bu amalning natijasi R munosabatga tegishli bo'lgan yoki S munosabatga tegishli bo'lgan yoki ikkalasiga ham tegishli bo'lgan kartejlar to'plamidir. Bu amallarni bajarayotganda bir xil tartibda bo'lishi kerak. Natijani tartibi ham operandlar tartibiga teng bo'ladi.

2) Ayirma R va S munosabatlarni ayirmasi $R - S$ ko'rinishida yoziladi va undagi kortejlar to'plami R munosabatga tegishli, lekin S munosabatga tegishli bo'lmagan kortejlardir. Bu amalning bajarilishida ham operandlarni tartibi bir xil bulishi kerak.

3) Dekart ko'paytma. Bizda R va S munosabat berilgan bo'lsin. R munosabatni tartibi R va S munosabatniki S ga teng bo'lsin. Unda dekart ko'paytma $R * S$ ko'rinishida yozilib, uning natijasi uzunligi $R + q$ ga teng bo'lgan kortejlar to'plamidan iborat bo'lib, bu kortejlarni birinchi R komponentasi R kortejga teng bo'ladi, qolgan q komponentasi S kortejga teng bo'ladi.

4) Proeksiya, R munosabatga bu amal tadbiriq etilganda, R munosabatlardan Relyatsion MBBT da ma'lumotlar bilan ishlashda ishlatiladigan 2ta katta guruh tillari relyatsion hisoblash deyiladi.

Relyatsion hisoblash predikatlarini hisoblashga asoslangan bo'lib ifodalarni yozishga mo'ljallangan to'plamidan iboratdir. Ular yordamida biz mavjud munosabatlardan yangi munosabatlar yaratishni ta'minlaymiz. Bunday ifodalarni yozishda solishtirish

amallari, mantiqiy amallar va mavjudlik kvanteri va umumiylik kvanteri ishlatiladi.

Hozirgi paytda relyatsion MBBT ni taraqqiyotida yangitil QBE tili ishlatilmoqda.

Bu tilda relyatsion algebra va relyatsion hisoblashlarda koʻzda tutilmagan bir qancha imkoniyatlar kirgan. Bu tilni hususiyati shundan iboratki, u terminallarda ishlashga muljallangan. Soʻrovlarni yaratish uchun maxsus ekran redaktoridan, munosabat va redaktorlaridan foydalanamiz. QBE tilida foydalanuvchi oʻzi olishini moʻljallagan natijani soʻrov koʻrinishida tasvirlaydi va MBBT uni kerakli amallar ketma – ketligiga aylantirib beradi. Maʼlumot modelini rivojlanish konsepsiyasi 5 ta bosqichni koʻrsatishi mumkin:

1. 60- yillarning 2 – yarmida, bunda asosan ierarxik modellarga eʼtibor berilgan;
2. 70- yillarni 1 – yarmi, tarmoqli modellar;
3. 70- yillarning 2 – yarmi, relyatsion modellar;
4. 80- yillarning 1 – yarmi, semantik modellar;
5. 80- yillarning 2 – yarmi, obyektga moʻljallangan sistema.

Nazorat savollari

1. Relyatsion maʼlumotlar bazasini asosiy tushunchalari.
2. Munosabat xossalari qanday?
3. Munosabatlar sxemasiga misollar keltiring.
4. Relyatsion algebra amallarini aytib oʻting.
5. Relyatsion hisoblash amallarini ayting va misol keltiring.

2.4. Maʼlumotlar bazasini rejalashtirish, loyihalash va administratorlash

Maʼlumotlar bazasini rejalashtirish. Maʼlumotlar bazasi tizimini yaratish hayot siklini samarali tashkil etishga imkon beradigan boshqaruv faoliyati. Tashkillashtirishning axborot tizimi umumiyashtirilib integratsiyalanishi lozim. **Maʼlumotlar bazasini rejalashtirish quyidagi boshqaruv standartlarini tashkil etishni oʻz ichiga oladi:**

- maʼlumotlarni qay darajada toʻplanganligi;
- qay darajada alohida formatga ega ekanligi;
- qandaydir kerakli hujjatlarni toʻplanganligi;
- qay darajada loyihalash va amalga oshirishganligi.

Ma`lumotlarni loyihalash. Zarur ma`lumotlar bazasi tizimi uchun maqsadli vazifalar va korxonada topshiriqlarini qo`llab - quvvatlashda ma`lumotlar bazasini loyihalash yaratish jarayonidir.

Ma`lumotlar bazasini loyihalash quyidagi asosiy yondashuvlarni o`z ichiga oladi:

Yuqoridan pastga ostin-ustun ichkaridan tashqariga aralash

Ma`lumotlarni loyihalashning uch bosqichi:

Konseptual ma`lumotlar bazasini loyihalash
Logik ma`lumotlar bazasini loyihalash
Fizik ma`lumotlar bazasini loyihalash

Konseptual ma`lumotlar bazasini loyihalash.- Korxonadagi barcha fizik mulohazalarni ma`lumotlar bazasi modelini qurish jarayoni.

- Ma`lumot modeli bu foydalanuvchining alohida talablariga ma`lumotdan foydalanishni yaratish.

- Konseptual model logik loyihalash bosqichi uchun axborotlarning asosi hisoblanadi.

Logik ma`lumotlar bazasini loyihalash.Korxonada ma`lum bir ma`lumot modeli asosida ma`lumot ishlatilgan modelini qurish jarayoni, lekin muayyan MBBT va fizik bo`limlar bundan mustasno.

Konseptual model mantiqiy ma`lumotlar bazasi modeli uchun tartibga keltirilgan va tuzilgan model hisoblanadi.

Fizik ma`lumotlar bazasini loyihalash.Ikkilamchi saqlash bo`yicha ma`lumotlar bazasi amalga oshirishning tavsifini ishlab chiqarish jarayoni.Ma`lumotga samarali murojaatni tashkil qilishda bazalar o`zaro aloqasi fayl tuzilmalaridan foydalanishni tasvirlaydi. Bundan tashqari barcha o`zaro aloqadorlik chegaralari va xavfsizlik choralarini tasvirlaydi.

Maxsus MBBTga mo`ljallangan.

Ma`lumotlarni boshqarish(administratorlash)

- Rivojlantirish va shakllantirish standartlari rivojlantirish siyosati va prosedura
- Ma`lumotlar bazasini konseptual va mantiqiy loyihalash.
- Ma`lumotlar bazasini fizik loyihalash.

- Xavfsizlik va ma`lumotlar butunligini nazorat qilish.
- Jarayonni tekshirib borish.
- Ma`lumotlar bazasini sozlash.

Ma`lumotlar bazasini administratorlash.Ma`lumot bazasi administartori asosiy vazifasi ma`lumotlar bazasini ishchi holatini ta`minlash va uni unumdorligini oshirish. Ishchi holatini ta`minlashda asosiy ishlaridan biri bu ma`lumot bazasini installyatsiya qilish. Bu masalani yechishda parametrlarni to`g`ri tanlash, axborotlarni saqlash vositalarini konfiguratsiyalash, ma`lumotlar bazasini strukturasi aniqlash va ma`lumotlarni saqlash uchun soha ajratish.

Administrator shuningdek bazaga qo`shimchalar va yangilashlarni (tiklashlarni) o`z vaqtida o`rnatishga javob beradi. Administratorni muhim funksiyalaridan biriga ma`lumot bazasini himoyasini ta`minlash ham kiradi. U har doim ma`lumotlarni rezerv nusxalarini yaratish va uni ishonchli yerda saqlashi lozim.

Xavfsizlik.Tizimni administratorlashni muhim omillaridan biri ma`lumotlarni xavfsizligini ta`minlash mexanizmidir. Buning uchun administrator ma`lumotlar bazasi foydalanuvchilarini yaratadi va ularni aniq obyektlar ustida aniq amallar bajarish imtiyozlarini boshqaradi. Foydalanuvchilarni aniqlash va ularga murojatni cheklash ORACLE tizimida operatsion tizim darajasida va MBBT darajasida hal qilinadi. Ikkala bosqich uchun ham harakterli standart yondoshish, administrotor tomonidan foydalanuvchilarni ro`yxatdan o`tkazish va imtiyozlar berish bilan belgilanadi.

Imtiyoz tizim tomonidan ta`minlanuvchi qandaydir belgi bo`lib, u foydalanuvchiga aniq amallar bajara olish huquqini belgilaydi. Imtiyozlar (privilege) tizimda har xil amallar bajarishga ruxsatdir. MB serveri har bir foydalanuvchiga imtiyozlar majmuasini beradi.

Foydalanuvchilarni identifikatsiyalash.RACLE har bir foydalanuvchisi maxsus identifikatorga ega bo`lishi kerak: nomga yoki kirish nuqtasiga. Yangi identifikatorni yaratish administrator yoki shunday huquqqa ega bo`lgan foydalanuvchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Bu CREATE USER komandasi bilan amalga oshiriladi. Yangi yaratilgan foydalanuvchi tizim obyektlari bilan amal

bajarishga hech qanday huquqqa ega emas. Tizimda muvaffaqiyatli roy`xatdan o`tish uchun, administrator foydalanuvchiga seansni tashkil qilish uchun imtiyozlar berishi kerak. Buning uchun GRANT CREATE SESSION TO foydalanuvchi_nomi, komandasi ishlatiladi. Oracle'da foydalanuvchini ro`yxatdan o`tkazish va imtiyozlar berish

```
CREATE USER Baza IDENTIFIED BY 123456;
```

Foydalanuvchi yaratish.

Foydalanuvchi nomi: Baza. Foydalanuvchi paroli: 123456.

Foydalanuvchi nomi bilan tizimga kirish: Connect Baza/123456;

Foydalanuvchiga imtiyozlar berish GRANT CREATE SESSION TO Baza;

Grant succeeded. Imtiyozlar. Imtiyozlar ikkita sinfga bo`linadi:

-tizimli imtiyozlar (system privilege);

-obyektlarga murojat imtiyozlari(object privilege);

Imtiyozlar MBda foydalanuvchiga biron bir amalni bajarish huquqini beradigan imtiyozlardir.

Obyektlarga murojat imtiyozlari – alohida aniq obyekt ustida amalalrni bajarish uchun foydalanuvchiga beriladigan imtiyozlar. Masalan birorta jadvaldan tanlashlarni bajarish. Foydalanuvchiga tizimli imtiyozlar berish uchun GRANT komandasi ishlatiladi.

GRANT komandasi. ORACLE da tizimli imtiyozlar beradigan operator quyidagi sistaksisga ega: GRANT <tizimli imtiyozlar> TO <foydalanuvchi nomi> Masalan: Faraz qilaylik, baza nomli foydalanuvchiga CREATE TABLE tizimli imtiyoz berilgan bo`lsin Tab1 jadvalni Baza1 nomli foydalanuvchi tizimiga yaratishga uning tizim tomonidan inkor qilinadi. CREATE ANY TABLE imtiyozi berilsa, bu muvaffaqiyatli bajariladi. Bu holatni quyidagi so`rovda ko`rishimiz mumkin.

Nazorat savollari

1. Relyatsion ma`lumotlar bazasini rejalashtirish tushunchalari.
2. Ma`lumotlar bazasini hayot siklini keltiring.
3. Ma`lumotga samarali murojaatni tashkil qilishga misollar keltiring.
4. Ma`lumotlar bazasini administratorlash usullari.

5. Ma'lumotlar bazasida aloqadorlik chegaralari tarifini keltiring.

2.5. Ma'lumotlar bazasini normallashtirish: 1NF, 2NF, 3NF va Kodd normal formalari

Normallashtirish deganda berilgan munosabatni bir necha marta oddiy va kichik munosabatlarga ajratish tushuniladi. Bu jarayonda mumkin bo'lgan barcha funksional bog'lanishlar aniqlanadi.

Misol. A va V atributlar berilgan bo'lsin. Agar ixtiyoriy vaqtda A atributni bittadan ortiq bo'lmagan qiymatimos kelsa, unda V atributda funksional bog'langan deyiladi va quyidagicha belgilanadi:

$A \rightarrow V$ Shaxsiy nomer \rightarrow FamiliyaMasabi \rightarrow Maosh
bog'lanishlar MB uzluksiz o'zgarib turadi. Unda yangi ma'lumot elementlari qo'shiladi. Ular orasida yangi aloqalar yoki bog'lanishlar o'rnatiladi va ularni qayta ishlashni yangi usullari qo'llaniladi. Bu jarayonda imkoni boricha foydalanuvchi yaratgan MB bilan ishlash uchun yaratilgan dastur ilovasini kam o'zgartirishga harakat qiladi.

Bu muammoni hal qilish uchun ma'lumot elementlarini asosli ravishda guruhlariga birlashtirish va ular uchun kalitlarni aniqlash yo'li bilan hal qilinishi mumkin. Hozirgi kunda axborot tizimlari ishlab chiqaruvchilar ma'lumotlarni 3 – normal formada tasvirlab ishlatishni taklif etadilar.

Funksional bog'lanish tushunchasi. Relyasion MB da ma'lumotlarni strukturasi tashqari ularni sxematik informatsiyasiga ham etibor beriladi. MB ni strukturasi haqidagi informatsiya munosabat sxemasi yordamida beriladi. Sxematik informatsiyalar esa atributlar orasidagi funksional bog'lanishlar orqali ifodalanadi. MB munosabatlarida atributlarni tarkibini quyidagi talablarga javobberadigan qilib guruhlash kerak:

- Atributlar orasidagi zaruriy bo'lmagan takrorlanishlar bo'lmasligi kerak.
- Atributlarni guruhlaganda ma'lumotlar takrorlanishi minimal darajada qilib ta'minlanishi kerak.

Bu bevosita ma'lumotlarni tez qayta ishlash imkonini beradi. Bo'nga normallashtirish jarayoni yordamida erishiladi.

Birinchi normal forma (1NF): *Munosabat yoki Jadval birinchi normal formada deyiladi, qachonki undagi hech bir qatorning istalgan maydonda bittadan ortiq qiymat joylashmagan bo'lsa.*

Boshqacha aytganda birinchi normal forma bu har bir satr va ustun kesishmasida bitta bo'linmas atomar qiymat joylashgan munosabat yoki jadvaldir.

Ikkinchi normal forma (2NF): *Munosabat yoki Jadval ikkinchi normal formada deyiladi, qachonki agar u birinchi normal formada bo'lsa va har bir birlamchi kalitga kirmagan atribut birlamchi kalit atributlariga to'liq funksional bog'liq bo'lsa.*

Agar ixtiyoriy vaqtda, bitta atribut har bir qiymatiga ikkinchi atributni bittadan ortiq bo'lmagan qiymati mos kelsa, ikkinchi atribut birinchi atributga funksional bog'liq deyiladi va quyidagicha belgilanadi:

$$A \rightarrow V$$

Uchinchi normal forma (3NF): *Munosabat yoki Jadval uchinchi normal formada deyiladi, qachonki u ikkinchi normal shaklda bo'lsa va tranzitiv bog'lanishlar bo'lmasa.*

Agar V atribut A atributga, S atribut esa V atributga bog'langan bo'lsa, ya'ni, $A \rightarrow V$ va $V \rightarrow S$ bo'lsa va $A \not\rightarrow V$, $V \not\rightarrow S$, $V \not\rightarrow A$ shartlar bajarilsa S atribut A atributga tranzitiv bog'langan deyiladi. Agar $C \rightarrow B$, bajarilsa qat'iy tranzitiv bog'lanish deyiladi.

Uchinchi normal shakl dekompozitsiya deyiladi. Agar hamma ostki sxemalar uchinchi normal shaklda bo'lsa va yo'qotishsiz ulash xossasiga ega bo'lsa.

Optimal uchinchi normal shakldagi dekompozitsiya agar ostki sxemalar soni minimal bo'lsa va $A \rightarrow V \rightarrow S$ tranzitiv bog'lanish dekompozitsiyasida ostki sxemalar A va S komponentalarini o'z ichiga olmasa.

Uchinchi normal shaklni Xit algoritmi modifikatsiyasi yordamida hosil qilish mumkin: Munosabat sxemasi $R = (U, F)$, $A, V, C \subset U$, berilgan bo'lsin va $A \rightarrow V \rightarrow S$ – tranzitiv bog'lanish (S birlamchi kalitga kirmagan atributlardan iborat), u holda dekompozitsiya $\rho = (R_1 = (U_1, F_1), R_2 = (U_2, F_2))$, bu yerda $U_1 = U \setminus S$, $U_2 = B \cup C$, F_1 iva F_2 – funksiyalar to'plami F mos holda U_1 va U_2 ga proektsiyalari.

Agar kerak bo'lsa dekompozitsiya $R1$ va $R2$ dekompozitsiyasi amalga oshiriladi va hokazo.

Munosabat sxemasi uchinchi normal shaklga tegishli ekanligini tekshirish NP -murakkab masala chunki birlamchi bo'lmagan kalitlarni ajratish bilan bog'liq. Umuman olganda $A \rightarrow V \rightarrow S$ munosabat lekompozitsiyasini birlamchi kalitlar S iga tegishlimi yoki yo'qmi tekshirmasdan amalga oshirish mumkin, lekin ortiqcha ostki sxemalar ko'payishiga olib kelishi mumkin, bu esa dekompozitsiya sifatini kamaytiradi.

Quyidagi algoritmlar tranzitiv bog'lanishlarni oshkor shaklda olishni talab qilmaydi lekin optimal bo'lmagan dekompozitsiyalarni beradi.

Boys-Kodd normal formasi: *Munosabat yoki Jadval Boysa-Kodd normal (BKNF) formasida bo'ladi, agar maydonlar orasidagi har qanday funksional bog'lanish to'liq funksional bog'lanishga ega bo'lsa.*

Munosabat sxemasi $R == (U, F)$ Boys – Kodd normal formada deyiladi. Agar ixtiyoriy atributlar to'plami $A \subset U$ uchun agar biror atribut

$x \in U \setminus A$ funksional A dan bog'liq bo'lsa hamma munosabat atributlari ham funksional A dan bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, R Boys – Kodd normal formasida faqat va faqat shu holda bo'ladi agar ixtiyoriy $(X \rightarrow Y)$ va $X \not\subseteq Y$ bog'lanish uchun $X_+ = U$ bajarilsa.

Boys Kodd normal formasi **kuchaytirilgan uchinchi normal forma** deb ham ataladi.

Agar munosabat Boys – Kodd formasida bo'lsa uchinchi normal formada ham bo'ladi, aksi har doim ham to'g'ri emas.

Quyidagi algoritm Xit teoremasiga asoslangan.

Munosabat sxemasi $R = (U, F)$.berilgan bo'lsin.

1. F elementar funksional bazis F^* , ga o'tish, ya'ni to'liq bog'lanishlardan iborat minimal yopilmaga o'tish. Har bir bog'lanish o'ng qismida faqat bitta atribut bo'lishi lozim.

2. Dekompozitsiya ρ munosabat R uchun iterativ usulda quriladi. Bunda ρ har doim yo'qotishsiz ulanish xossasiga ega bo'ladi.

Avval ρ faqat R dan iborat. Agar S – sxema ρ dan va S da $X \rightarrow Y, X \supseteq Y$ bog'lanish mavjud bo'lsa va X o'z ichiga S kalitini olmasa, S

ni dekompozitsiya $S1 = (U1, F1)$, $S2 = (U2, F2)$, bilan almashtiriladi, bunda $U1 = X \cup Y$, $U2 = U \setminus Y$ (bu yerda $S = (U, F)$). Toki ρ hamma ostki sxemalari Boys – Kodd formasiga kelmaguncha jarayon davom etadi. Punkt 1 bajarish shart emas lekin loyihalash qiyinligi oshadi.

Nazorat savollari

1. Munosabatlar nima maqsadda normallashtiriladi?
2. Munosabotlar atributlariga qanday talablar qo'yiladi?
3. Funktsional bog'lanish turlari ayting.
4. 1 NF va undagi shartlar qanday?
5. Qanday qilib 1 NFdan 2 NFga o'tiladi?
6. Qanday qilib 2 NFdan 3 NFga o'tiladi?

3-BOB. SQL TILI ORQALI MA'LUMOTLAR USTIDA AMALLAR BAJARISH

3.1. SQL tili va SQL operatorlarini yozish

SQL tili foydalanuvchi relyatsion ma'lumotlar bazasi bilan muloqat

qilishi uchun mo'ljallangan bo'lib, quyidagi 3 ta qismdan iborat:

DDL (Data Definition Language) – ma'lumotlarni aniqlash tili.

Ma'lumotlar bazasini (jadvallarini, indekslarini va x.k.) yaratish va

uning sxemasini taxrirlash uchun mo'ljallangan.

DCL (Data Control Language) – ma'lumotlarni boshqarish tili.

Foydalanuvchilarning ma'lumotlar bazasi obyektlariga murojatini

chegaralash operatorlaridan iborat.

DML (Data Manipulation Language) – ma'lumotlarni qayta ishlash tili.

Ma'lumotlar bazasi jadvallariga o'zgartirishlar kiritish uchun mo'ljallangan.

Bu tillar ma'lumotlarni yuqori darajali dasturlash qism tillari deyiladi, chunki ularni tarkibida barcha hisoblarni bajarish uchun zarur bo'ladigan til konstruksiyalari bo'lmaydi (shartli o'tish amallari, yoki sikl operatorlari). Ma'lumotlar bazasi bilan ishlovchi ixtiyoriy til foydalanuvchiga quyidagi imkoniyatlarni yaratishi lozim:

strukturasini to'la tavsiflagan holda ma'lumotlar bazasini va jadvallarini yaratish;

ma'lumotlar ustida manipulyatsiya amallarini bajarish, masalan,

jadvallardan ma'lumotlarni kiritish, taxrirlash va o'chirish;

oddiy va murakkab so'rovlarni bajarish.

SQL turlari yoki rejimlari. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, SQL3 tili tarkibida hisoblash jarayonini boshqarish imkonini beruvchi IF ... THEN ...ELSE, GO TO, DO ... WHILE kabi buyruqlar mavjud emas. Bunday masalalar dasturiy yo'l bilan (dasturlash tili yoki masalalarni boshqarish tili) yoki interaktiv holda (foydalanuvchining so'rovlari asosida) amalga oshiriladi. Imkoniyati cheklanganligi

sababli (hisoblash jarayonini boshqarish imkoniyati) SQL tili 2 ta usulda qoʻllanilish mumkin. Birinchi usulda *interaktiv* ishlash nazarda tutiladi. Bunda foydalanuvchi SQL operatorlarini terminaldan beradi. Ikkinchi usulda protsedurali tildagi dasturga SQL tili operatorlari kiritiladi. Bu usullar baʼzi adabiyotlarda maʼlumotlar bazasi bilan ishlash texnologiyasi yoki rejimi yoki SQLturlari deb ataladi.

Interaktiv rejimda maʼlumotlar bazasi bilan ishlashda foydalanuvchi muloqot rejimida ishlaydi, yaʼni SQL tilidagi soʻrovni kiritadi va natijani oladi, yangi soʻrovni kiritadi va natijaga ega boʻladi va x.k. Interaktiv SQLda foydalanuvchi SQL- soʻrovlar va natija interaktiv rejimda olinadi.

Kiritilgan SQL rejimida boshqa dasturlash tillarida yaratigan dasturlardan foydalaniladi. SQL komandalari boshqa birorta tilga (S++S, Delphi) yozilgan dastur ichiga joylashtiriladi. Bu shunday tillarni ishlatadigan dasturlarni samarador, quvvatli qiladi. Ular relyatsion maʼlumotlar bazasi bilan ishlash imkonini beradi.

Maʼlumotlar tiplari. SQL tilida quyidagi asosiy maʼlumotlar tiplari ishlatilib, ularning formatlari har xil MBBT lar uchun farq qilishi mumkin:

INTEGER	- butun son (odatda 10 tagacha qiymatli raqam va ishora).
SMALLINT	- "qisqa butun" (odatda 5 tagacha qiymatli raqam va ishora).
DECIMAL(p,q)	- oʻnli son, p raqam va ishoradan iborat ($0 < p < 16$). Oʻnli nuqtadan soʻng raqamlar soni q orqali beriladi ($q < p$, agar $q = 0$ boʻlsa, tashlab yuborilishi mumkin).
FLOAT	- xaqiqiy son 15 ta qiymatli raqam va butun darajadan iborat. Daraja MBBT tipi bilan aniqlanadi (masalan, 75 yoki 307).
CHAR(n)	- uzunligi oʻzgarmas, n ga teng boʻlgan simvulli qator ($0 < n < 256$).
VARCHAR(n)	- uzunligi oʻzgaruvchi, n simvoldan oshmagan simvulli qator ($n > 0$ va har xil MBBT larda har xil lekin 4096 dan kam emas).
DATE	- maxsus komanda orqali aniqlanuvchi

	formatdagi sana (Subase da ko‘zda tutilgan bo‘yicha yy/mm/dd); sana maydonlari bizning eramizdan oldin bir necha mingyilliklardan boshlanuvchi va bizning eramiz beshinchi-o‘ninchi mingyilligi bilan cheklangan xaqiqiy sanalarni o‘z ichiga olishi mumkin.
TIME	-maxsus komanda orqali aniqlanuvchi formatdagi vaqt (ko‘zda tutilgan bo‘yicha hh.mm.ss).
DATETIME	- sana va vaqt kombinatsiyasi. (Sybase da TIMESTAMP).
MONEY	-maxsus komanda orqali aniqlanuvchi formatdagi pul. Format o‘z ichiga pul birligi simvoli (\$, rub, ...) va uning joylashuvi (suffiks yoki prefiks), kasr qism aniqligi va pul qiymatini ko‘rsatish shartlarini oladi.

CREATE

Bu buyruq SQL obyektining bir necha turlarini, shu bilan birga sxemalarni, domenlarni, jadvallar va tasavvurlarni yaratishi mumkin. CREATE SCHEMA (sxemani tuzish) operatori bilan sxemani tuzish, uning egasini aniqlash mumkin. Misol qilib bir operator ko‘rinishini ko‘rsatib o‘tamiz:

```
CREATE SCHEMA SALES  
AUTHORIZATION SALES_MGR  
DEFAULT CHARACTER SET ASCII_FULL ;
```

CREATE DOMAIN (domen tuzish) operatori yordamida ustunda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma‘lumotlarga cheklashlar qo‘yiladi. Bu cheklashlar orqali domenda mavjud bo‘lishi mumkin va mumkin bo‘lmagan obyektlar belgilanadi. Sxema o‘rnatilgandan keyin domenni tuzish mumkin.

Misol:

```
CREATE DOMAIN AGE AS  
INTEGER CHECK (AGE > 20);
```

Jadvallar CREATE TABLE operatori yordamida, tasavvur esa CREATE VIEW yordamida tuziladi. CREATE TABLE yordamida tuzilayotgan yangi jadval o'sha operatorning ustunida kerakli bo'lgan cheklashlar ham qo'yish mumkin. Ba'zi paytlarda cheklashlarni butun sxemaga ham qo'yish to'g'ri keladi. Bunday vaziyatlarda CREATE ASSERTION operator yordamida amalga oshiriladi. Bundan tshqari yana CREATE CHARACTER SET, CREATE COLLATION va CREATE TRANSLATION operatorlari mavjud.

SQL buyruqlari Relatsyon ma'lumotlar bazasi bilan o'zaro aloqada bo'lish uchun standart SQL buyruqlari

1. CREATE — yaratish,
2. SELECT — tanlash,
3. INSERT — kiritish,
4. UPDATE — yangilash,
5. DELETE – o'chirish va
6. DROP – butunlay o'chirib tashlash.

Ushbu buyruqlarni tabiatiga qarab quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin

— *DDL — ma'lumotlarni aniqlash tili Nomer Buyruq va tavsif*

1 CREATE — YARATMOQ Ma'lumotlar bazasida yangi jadval, jadval ko'rinishi yoki boshqa obyekt yaratadi.

2 ALTER – o'zgartirish kiritish Jadval kabi mavjud ma'lumotlar bazasi obyektini o'zgartiradi.

3 DROP Butun jadvalni, jadval ko'rinishini yoki ma'lumotlar bazasidagi boshqa obyektlarni yo'q qiladi.

DML — Ma'lumotlar manipulyatsiyasi tili Nomer Buyruq va tavsif

1 SELECT — TANLASH. Bir yoki bir nechta jadvaldan ma'lum yozuvlarni olish.

2 INSERT — KIRITMOQ Yozuvni yaratadi.

3 UPDATE — YANGILASH Yozuvlarni o'zgartiradi.

4 DELETE — O'chirish Yozuvlarni yo'q qiladi.

DCL — Ma'lumotlarni boshqarish tili Nomer Buyruq va tavsif

1 GRANT Foydalanuvchi uchun imtiyoz beradi.

2 REVOKE — Qayta ko‘rib chiqing Foydalanuvchiga berilgan imtiyozlarni qaytarib oladi. To‘liq matnni bu yerdan o‘qing: <http://uzinfobiz.ru/sql-haqida-malumat.html>

SQL so‘rov tilini o‘rganishni boshlaymiz. Har bir maqolada ma'lum bir sql komandalarini yozib borishga harakat qilaman. Bu so‘rov tili bevosita ma'lumotlar bazasi(jadvallar)ga bog‘liq bo‘lgani uchun, maqola boshida biror jadvalni olib, shu jadvalga har xil so‘rovlar berib boraman.

Misollar, **oracle** ning **isqlplus** muhitida sinab boriladi va natijalar chiqariladi. Isqlplus dan boshqa muhitlarda ham bu komandalar ishlaydi, lekin ba'zi o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin(sqlplus, mysql). Komandalarni, o‘rganishga qulay va soddadan qiyinga ko‘tarilib borish tartibida ko‘rsatib boraman. Iloji boricha to‘liq ma'lumot berishga harakat qilaman. Bu maqolada quyidagi jadvaldan foydalanamiz.

NAME	SURNAME	YEAR	NUM
David	Beckham	7	1
Eric	Contana	17	2
Wayne	Rooney	10	3
Rio	Ferdinand	4	4
Nemane	Vidic	6	5

Bu jadval "**misol**" deb nomlanib, 4 ta ustun va 6 ta qatordan iborat. YUqoridagi qatorda faqat qator nomlari aks ettirilgan, ular ma'lumot vazifasini bajarmaydi. 5 ta qatordan iborat ma'lumot, bizning jadvalimizda joylashgan va biz bu ma'lumotlarni sql so‘rov tili orqali har xil ko‘rinishda chiqarib olishimiz mumkin. Albatta haqiqiy ma'lumotlar bazasida bunday kam ma'lumotlar saqlanmaydi, biz misollarni shu kichik ma'lumotlarda bajaramiz.

Demak birinchi komanda bu – **SELECT**.

SELECT * FROM Misol;

Bu so‘rovning ma'nosi, "Misol" jadvalidagi barcha ma'lumotlarni chiqar deganidir. "*" barcha ustunlardagi ma'lumotlarni degani. "**SELECT**" – esa ekranga chiqar degani.

Natijani ko‘ramiz:

NAME	SURNAME	YEAR	NUM
David	Beckham	7	1
Eric	Contana	17	2
Wayne	Rooney	10	3
Rio	Ferdinand	4	4
Nemane	Vidic	6	5

Agar bizga barcha ustun ma'lumotlar emas, faqatgina ba'zi birlari kerak bo'lsa, kerakli ustun nomlarini vergul orqali nomma nom yozamiz.

SELECT name, surname, year FROM misol;

Natija:

NAME	SURNAME	YEAR
David	Beckham	7
Eric	Contana	17
Wayne	Rooney	10
Rio	Ferdinand	4
Nemane	Vidic	6

Ma'lumotlar bazasidan, ma'lumotlarni chiqarishda mantiqiy amallar orqali(+ , — , * , / ,()), ma'lumotlarga o'zgartirish kiritib, ekranga chiqarishimiz mumkin bo'ladi.

SELECT name, year+15, num*10 FROM misol;

Natijani ko'rsangiz, so'rov tili orqali, ma'lumotlarni o'zgartirganimizni ko'rishingiz mumkin bo'ladi.

NAME	YEAR+15	NUM*10
David	22	10
Eric	32	20
Wayne	25	30
Rio	19	40
Nemane	21	50

yoki bo'lmasa quyidagicha

SELECT year+10*num, name FROM misol;

YEAR+10*NUM	NAME
17	David
37	Eric
40	Wayne
44	Rio
56	Nemane

Agar bazadagi ustun nomlari sizga yoqmasa, siz ularni o‘zingiz hohlaganday nom bilan ekranga chiqarishingiz mumkin bo‘ladi, bunda ma'lumotlar bazasidagi ustun nomlari o‘zgarmaydi, faqat ekranda o‘zgargan ko‘rinishi chiqadi. Bunda bizga " as" kalit so‘zi yordam beradi.

SELECT name as ism, surname as familiya FROM misol;

ISM	FAMILIYA
David	Beckham
Eric	Contana
Wayne	Rooney
Rio	Ferdinand
Nemane	Vidic

Agar nomlarni qo‘shirnoq ichiga olsangiz, qo‘shirnoqdagi katta kichik harflar farqli bo‘lib qoladi.

**SELECT name as "IsM",
surname as "FamiliyA" FROM misol;**

IsM	FamiliyA
David	Beckham
Eric	Contana
Wayne	Rooney
Rio	Ferdinand
Nemane	Vidic

Agar 2 ta ustun natijalarini birlashtirib, ekranga chiqarmoqchi bo‘lsangiz "||" belgisidan foydalanishingiz mumkin bo‘ladi.

SELECT year||num, name FROM misol;

YEAR NUM	NAME
71	David
172	Eric
103	Wayne
44	Rio
65	Nemane

yoki

SELECT year||'OK'||num, name FROM misol;

YEAR 'OK' NUM	NAME
7OK1	David
17OK2	Eric
10OK3	Wayne
4OK4	Rio
6OK5	Nemane

Agar chiqarayotgan natijaning davomiga qandaydir belgilar(qo'shtirnoq, vergul, nuqta) chiqarmoqchi bo'lsangiz, maxsus "q" va qo'shtirnoq belgilari orasiga kerakli belgilarni yozishingiz mumkin bo'ladi.

SELECT name||q'[, so? it's]' FROM misol;

NAME Q',SO?IT'S'
David , so? it's
Eric , so? it's
Wayne , so? it's
Rio , so? it's
Nemane , so? it's

Nazorat savollari

1. DDL komandalarini ayting.
2. DML vazifasi va uning ishlatilishini ko'rsating.
3. SQLda toifa tushunchasi nima?
4. SQLda toifalar nima maqsadda qo'llaniladi?
5. SQL tilining ikkita asosiy komponentasi va ularning funksiyalarini ko'rsating.
6. **SELECT** operatori asosiy konstruksiyalari va ularga qo'yiladigan cheklanishlarni ayting.

3.2. Ma'lumotlar manipulyatsiya qilishda oddiy so'rovlar yaratish.

Ko'pgina amaliy masalarni yechishda ma'lum shartlar asosida axborotlarni ajratib olish talab etiladi.

Masalan: Student jadvalidan Petrov familiyali talabalarni chiqarish kerak.

SELECT surname, Name, from Student

WHERE surname='Petrov

WHERE shartida solishtirish amallari jumladan, =>, <, <=, >=, shuningdek, mantiqiy amallar «end» “ot”, “not” amallari ishlashi mumkin. Ular yordamida murakkab shartlar tuzunlikiladi.

Masalan: 3-kurs stipendiya oladigan talabalarni ismi familiyasini chiqaring.

**SELECT name, surname FROM Student
WHERE kurs=3 and stipend>0;**

Mantiqiy shartlarni berishda where parametri tarkibida IN, BETWEEN, LIKE, IS amallari ham ishlatiladi.

IN, NOT parametli ishlatilganda tekshirilayotgan maydon qiymati berilgan ro'yxat bilan solishtiriladi. Bu ro'yxat ni operator o'ng tomonidani () ichida yoziladi.

1 Exam baholari jadvaldan «4» va «5» baholi talabalar ro'yxatini chiqaring.

**SELECT *
FROM Exam_marks
WHERE mark IN (4,5);**

Birorta ham 4,5 olmagan talaba haqidagi ma'lumotlar olish uchun not in yoziladi. **Between** amali maydon qiymatini berilgan intervalga kirganligini tekshirish uchun ishlatiladi. 2: 30 va 40 soat doirasida o'qitiladigan fanlarni chiqarish so'rovini tuzing.

**SELECT*; from Subject
WHERE hour BETWEEN 30 AND 40;**

BETWEEN amali maydonla sonli va simvolli bluganda ham ishlatiladi.

LIKE amali f-t simvolli toifadagi maydonlar uchun ishlatiladi. Bu amal maydonni satrli matnlarni like dan so'ng ko'rsatilgan qism satr bilan solishtiradi.

3 studentlar jadvalida familiyasi «M» harfi bilan boshlanadigan talaba haqida ma'lumot chiqaring.

**SELECT* FROM Student
WHERE surname LIKE P%;**

%- foiz belgisi shu pozitsiyada ixtiyoriy simvollar ketma-ketligi kelishini anglatadi. Bundan tashqari «__» ma'nosi, shu pozitsiyada ixtiyoriy 1 ta simvol kelishini anglatadi.

Bu amallarni maydonda o`tkazib yuborilgan qiymatlarni yoki noaniq qiymatlarni topishda ishlatib bo`lmaydi. SQL tilida ma'lumotlarni almashtiruchi va kiritilgan familiyalar ishlatilishi mumkin. Ular ustun qiymatlari bilan ishlashi uchun yoki const sifati ifodalarda keladi. Const sifatida simvolli const, sonli constlarni ishlatish mumkin. Ular ustunlar ro`yxatiga kiritiladi va huddi virtual ustun kabi aniqlanadi. Agar so`rovda ustun o`rnida son kelsa, bu sonli const hisoblanadi. Simvolli const() ichida yoziladi.

Misol: quyidagi so`rov ushbu jadvalni chiqaradi.

```
SELECT 'familiya', surname, 'imya', 'name', 100  
FROM Student
```

Sonli ma'lumotlarni uzunlik o`zgartirish uchun atribut amallardan foydalanamiz. Bunda quyidagi amallar ishlatiladi: «-», «+», «*», «/»

Misol:

```
SELECT surname, name, stipend kurs, (stipend*kurs)/2;  
FROM Student  
WHERE kurs = 4 AND stipend >0
```

Joylashtirilgan so`rovlar

Misol. Joylashtirilgan so`rov:

```
SELECT name  
FROM users  
WHERE id_user IN  
(SELECT id_author  
FROM topics  
WHERE topic_name='велосипедлар');
```

Misol. Xuddi shu so`rov:

```
SELECT name  
FROM users  
WHERE id_user = (SELECT id_author  
FROM topics  
WHERE topic_name='велосипедлар');
```

Moslashtirilgan so`rovda tashqi so`rov xar bir satri uchun ostki so`rov bajariladi

Misol:

```

SELECT *
FROM Customers outer
WHERE 10/03/1990 IN ( SELECT odate
FROM Orders inner
WHERE outer.cnum = inner.cnum );

```

Shu misol:

```

SELECT *
FROM Customers first, Orders second
WHERE first.cnum = second.cnum
AND second.odate = 10/03/1990;

```

Misol. Tashqi so'rovdan foydalanish.

```

SELECT *
FROM Orders outer
WHERE amt > ( SELECT AVG amt
FROM Orders inner
WHERE inner.cnum = outer.cnum );

```

SQL da almashtirish funksiyalari bilan ishlash.

1. LOWER (<satr>)- berilgan satrni kichik harflarga almashtirib beradi.

2. UPPER (<satr>) – kichik harflarni kata harflarga almashtirib beradi.

3. INIT CAP (<satr>)- satrdagi har bir so'z unlikni 1-harfini bosh harf qilib beradi.

Maslan, ularga quyidagi misolni ko'ramiz.

```

SELECT LOWER (surname), UPPER (name)
FROM Student
WHERE kurs=4 AND stipend 20;

```

4. LPAD(<satr>,uzunlikunlik,[<qism satr>);

Berilgan uzunlikunlikdagi qism satrni chapdan, o'ngga joylashtiriladi. Agar qism satr ko'rsatilmagan bo'lsa, satr sukut bilan, probellar bilan to'ldiriladi. Agar uzunlik o'nlik satr unlikdan kerak bo'lsa berilgan satr ko'rsatilgan uzunlikunlikgacha qirqiladi.

Misol:

```

SELECT LPAD (surname, 10, D), LPAD (name, 10,8)
FROM Student
WHERE kurs=3 and stipend>0;

```

5 .LTRIM (<satr>), [<qism satr>]);

Bu funksiyalarni vazifasi mos ravishda chapdagi (o'ngday) chegaraviy simvol olib tashlashdan iborat. Olib tashlangan simollar qism satrda ko'rsatiladi.

Agar qism satr ishlamasa, probellari olib tashlanadi.

6.SUBSTR (<satr>, <boshlanish>, [<soni>]

Quyidagi bu funksiyalari satrdan berilgan pozitsiyadan boshlab berilgan sondagi simvollar ajratib olinadi. Agar soni ko'rsatilmagan bo'lsa satrni boshidan oxirigacha ajratib olinadi.

Misol:

SUBSTR (hurmatli do'stim: 10,6)=> do'stim

Misol:

SELECT SUBSTR (name, 1,1)

FROM Student

WHERE kurs IN (2,3,4) AND stipend>0;

7. **LENGTH (<satr>)** vazifasi satrni uzunlikunligini aniqlab borishdan iborat.

SELECT city, LENGTH (city)

FROM Student

WHERE kurs IN (2,3,4) AND stipend>0;

Guruhli (agregat) funksiyalar. Guruhli funksiyalar jadvaldan yig'ilgan axborotlarni olish uchun xizmat qiladi. Bu funksiyalari jadvaldagi satrlar guruhi bilan amal bajarib, 1 ta natija chiqaradi. Guruhli funksiyalar uchun quyidagi amallarni ishlatamiz.

1. **COUNT-** jadvaldagi satrlar sonini aniqlab beradi.

2. **SUM-** ko'rsatilgan maydon qiymatlarini yigindisini hisoblaydi.

3. **AVG-**tanlab olingan maydon qiymatlarini o'rta arifmetigini hisoblaydi.

4. **MAX (min)-**tanlab olingan maydon qiymatlarini eng kattasini (kichigini) topib beradi. **SELECT** so'rovida guruhli funksiyalar maydon nomlari kabi ishlatiladi.

Maydon nomlari funksiyalar argumentlari sifatida keladi.

Misol:Exam_marks jadvaldagi o'rta ball.

```
SELECT AVG (mark)  
FROM Exam_marks
```

Jadvaldagi satrlar (yoki yozuvlar) sonini hisoblash uchun quyidagi komandadan foydalanamiz.

```
SELECT COUNT (*)  
FROM Exam_marks
```

Misol:

```
SELECT COUNT (DISTINCT subj_ID)  
FROM Subject;
```

SELECT komandasida **GROUP BY** parametr ham ishlashi.

Bu paramet bir maydon o'xshash parametrlari (aniqlanayotgan qiymati) bo'yicha guruhlaydi va agregat funksiyalar ishlatilshi, ular shu guruhga bo'ladi.

Misol:

```
SELECT student_ID,MAX (mark)  
FROM Exam_marks  
GROUP BY student_ID
```

Guruhlashni bir nechta maydon bo'yicha ham bajarish mumkin.

```
SELECT student_ID, subject_ID, MAX (mark)  
FROM Exam_marks  
GROUP BY student_ID, subject_ID
```

Guruhlar ichidan kerakli yozuvlarni ajratib olish uchun *having* ishlatiladi.

```
SELECT subj_name, MAX (hour)  
FROM Subject  
GROUP BY subj_name HAVING MAX (hour)>= 34;
```

Ba'zi hollarda natija jadvalidagi ma'lumotlarni tartiblash talab etiladi. Buning uchun **ORDER BY** parametri ishlashi. Bu parametr ko'rsatilgan maydon barcha yozuvlarni o'sib borishi tartibida tartiblab beradi. **ORDER BY DESC** yozilsa, kamayishi tartibida yoziladi. **ORDER BY (ASC)** bo'lsa o'sish tartibida yoziladi.

Misol:

```
SELECT*
```

```
FROM Subject  
ORDER BY subj_name
```

Misol:

```
SELECT*  
FROM Subject  
ORDER BY subj_name DESC
```

Tartiblash bir nechta maydon barcha bajarilishi ham mumkin. Bunda avval tartiblash 1-maydon bo'yicha keyin 2-maydon bo'yicha bajariladi. Shuningdek, order by parametri group by parametri bilan birga ishlatilishi mumkin. Bunda order by so'rovda oxirida keladi va unda guruhni ichidagi yozuvlar tartiblaydi.

Misol:

```
SELECT *  
FROM Subject  
ORDER BY semester, subj_name;
```

ORDER BY semester SQL tili 1 ta so'rov ichiga 2-so'rovni joylashtirib ishlatish imkonini beradi.

Misol: birorta talabani familiyasi bo'yicha uning ID sini topish talab etilsa, va bu talabani barcha baholari haqidagi ma'lumotni ko'rmoqchi bo'lsak, quyidagi so'rovni yozish mumkin.

```
SELECT*  
FROM Exam_marks  
WHERE student_ID =(  
SELECT student_ID  
FROM student  
WHERE surname= 'Petrov'  
)
```

Tasvirlar

Tasvir. Tasvir bir yoki bir nechta doimiy jadvallar asosida yaratilgan virtual jadvaldir.

Tasvirlar quyidagi komanda orqali yaratiladi:

```
CREATE VIEW <tasvir_nomi>  
AS <so'rov>
```

Misol:

```
CREATE VIEW info_order  
AS SELECT onum, amt, cname  
FROM orders, customers  
WHERE orders.cnum = customers.cnum;
```

Tasvirlarga murojaat. Tasvirga SQL komandalarini masalan SELECT komandasini qo'llash mumkin.

Masalan:

```
SELECT * FROM info_order;
```

Tasvirga so'rov asosida yangi tasvir yaratilishi mumkin. Lekin bu imkoniyatdan amaliyotda kam foydalaniladi.

Joylashtirilgan so'rovli tasvir. Misol. Eng katta reytingga ega oluvchilarni ko'rsatuvchi Cust_Rating_Max nomli tasvir yarating:

```
CREATE VIEW Cust_Rating_Max  
AS SELECT cname, city, rating  
FROM Customers  
WHERE rating = (SELECT Max(rating)  
FROM Customers);
```

Guruhlanuvchi tasvir. Misol. Har bir sotuvchi uchun buyurtmalar o'rta narxini ko'rsatuvchi Sale_Amt_Avg nomli tasvir yarating:

```
CREATE VIEW Sale_Amt_Avg  
AS SELECT sname, AVG(amt)  
FROM Salespeople, Orders  
WHERE Salespeople.snum = Orders.snum  
GROUP BY sname;
```

Tartiblanuvchi tasvir. Hamma MBBT lar ham tartiblashli tasvirlarni qo'llamaydi.

Buyurtmalar haqida ma'lumotni buyurtma summasi bo'yicha tartiblab chiqaruvchi tasvir yarating.

```
CREATE VIEW Orders_All  
AS SELECT amt, odate, Customers.cname,  
Salespeople.sname  
FROM Orders, Customers, Salespeople  
WHERE Orders.cnum = Customers.cnum AND
```

**Orders.snum = Salespeople.snum
ORDER BY amt;**

Parametr WITH CHECK OPTION. CREATE VIEW parametri WITH CHECK OPTION vazifasi hamma UPDATE va INSERT komandalari tasvir ta'rifiga mos kelishini garantiya qilish. Agar shartga javob bermasa UPDATE yoki INSERT xato qaytaradi.

Misol:

**CREATE VIEW Customers_View AS
SELECT name, age
FROM Customers
WHERE age IS NOT NULL
WITH CHECK OPTION;**

Tasvirlarni o'zgartirish. Tasvirlarni o'zgartirish komandalari asosiy jadvallarni o'zgartiradi.

Misol. Mijoz uchun yoshini o'zgartirish.

**UPDATE Customers_View
SET AGE = 35
WHERE name = 'Ramesh';**

Bu CUSTOMERS jadvalini ham o'zgartiradi.

Tasvirdan satrlarni o'chirish

Misol. AGE = 22 yozuvni o'chirish.

**DELETE FROM Customers_View
WHERE age = 22;**

Natijada satr CUSTOMERS jadvalidan ham o'chiriladi.

Modifikatsiya qilinuvchi tasvirlar. Modifikatsiya qilinuvchi tasvir deb shunday tasvirga aytiladiki, agar tasvirdagi ma'lumotlar o'zgartirilsa, asosiy jadvallar ham o'zgaradi. Ya'ni tasvirga UPDATE/INSERT/DELETE operatorlar qo'llansa jadvallar ham o'zgaradi.

Hamma tasvirlar ham modifikatsiya qilinuvchi bo'la olmaydi. Modifikatsiya qilinmaydigan tasvirlar faqat *o'qish uchun tasvirlar* deyiladi.

Tasvir modifikatsiya qilinuvchi bo'lishi uchun quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

1. SELECT shartida DISTINCT ishlatilmasligi lozim.
2. SELECT shartida agregat funksiyalar bo‘lmasligi lozim.
3. SELECT shartida berilgan funksiyalar bo‘lmasligi lozim.
4. SELECT shartida berilgan operatorlar bo‘lmasligi lozim.
5. SELECT shartida ORDER BY bo‘lmasligi lozim.
6. FROM shartida bir nechta jadval qatnashmasligi lozim.
7. WHERE shartida ostki so‘rovlar qatnashmasligi lozim.
8. So‘rovda GROUP BY va HAVING qatnashmasligi lozim.
9. Qayta ishlangan ustunlar yangilanmasligi lozim.
10. Hamma asosiy jadvaldagi NOT NULL ustunlar tasvirda qatashishi lozim INSERT ishlashi uchun.

Misollar. Faqat o‘qish uchun va modifikatsiyalanuvchi tasvirlarga misollar:

```
CREATE VIEW Dateorders (odate, ocount)
AS SELECT odate, COUNT (*)
FROM Orders
GROUP BY odate;
```

Bu faqat o‘qish uchun tasvir chunki agregat funksiya va GROUP BY mavjud.

```
CREATE VIEW Londoncust
AS SELECT *
FROM Customers
WHERE city = 'London';
```

Bu tasvir modifikatsiya qilinuvchi.

```
CREATE VIEW Sales (name, number, percentage)
AS SELECT sname, snum, comm*100
FROM Salespeople
WHERE city = 'SanJose';
```

Bu faqat o‘qish uchun, chunki "comm * 100" ifoda ishlatiladi.

```
CREATE VIEW Salesonthird
AS SELECT *
FROM Salespeople
WHERE snum IN (SELECT snum
FROM Orders
WHERE odate = 10/03/1990);
```


Bu ANSI bo'yicha faqat o'qish uchun so'rov chunki ostki so'rov mavjud. Lekin ba'zi dasturlarda modifikatsiya qilinuvchi bo'lishi mumkin.

```
CREATE VIEW Someorders  
AS SELECT snum, onum, cnum  
FROM Orders  
WHERE odate IN (10/03/1990,10/05/1990);
```

Bu modifikatsiya qilinuvchi tasvir.

Tasvirlarni o'chirish. Tasvirlarni o'chirish quyidagicha amalga oshiriladi:

```
DROP VIEW view_name;
```

Misol. CUSTOMERS jadvali asosida yaratilgan CUSTOMERS_VIEW tasvirni o'chirish.

```
DROP VIEW CUSTOMERS_VIEW;
```

Tasvirni o'zgartirish komandasi *ALTER VIEW*.

```
ALTER VIEW tasvir_nomi [(ustun_1, ustun_2, ....)]  
AS ifoda_SELECT
```

Masalan OrdersProductsCustomers tasvirni o'zgartirish:

```
ALTER VIEW OrdersProductsCustomers  
AS SELECT Orders.CreatedAt AS OrderDate,  
Customers.FirstName AS Customer,  
Products.ProductName AS Product,  
Products.Manufacturer AS Manufacturer  
FROM Orders  
INNER JOIN Products ON Orders.ProductId = Products.Id  
INNER JOIN Customers ON Orders.CustomerId =  
Customers.Id;
```

Nazorat savollari

1. SQLda almashtirish funksiyalari nima maqsadda ishlatiladi?
2. Guruhli funksiyalarga qanday funksiyalar kiradi?
3. Tasavvurlar (View)ning afzalliklari nimada?
4. Shartli so'rovlar qanday tashkil qilinadi?
5. Guruhli funksiya vazifalari?
6. Guruhli funksiya ko`rinshlari?

7. Murakkab so`rovlar yaratish qanday yaratiladi?

3.3. SQLtili yordamida ma'lumotlarni tavsiflash

Butunlik (inglizcha – teginmaslik, saqlanish, bir butun) – deganda har qanday vaqtda ma'lumotlarning to'g'riligi tushuniladi. Bu maqsad ma'lum chegarada bo'lishi kerak. MBBT ma'lumotlar bazasiga kiritilayotgan har bir bo'lak qiymatning to'g'riligini tekshirish imkonini bermaydi. Masalan, kiritilayotgan 5 (hafta kun nomerini ko'rsatuvchi) qiymati haqiqatda 3 ga teng bo'ishini tekshirmaydi. Boshqa tomondan 9 qiymati aniq xato bo'ladi va MBBT bo'nga javob qaytaradi. Chunki bu nomer (1,2,3,4,5,6,7) sonlar to'plami ichida yo'q. MBning butunligini ta'minlashni ma'lumotlarni har xil to'g'ri bolmagan o'zgarishlar yoki buzulishdan himoyalash deb qarash kerak. Zamonaviy MBBT butunlikni ta'minlash uchun bir qancha vositalarga ega: Butunlikni aniqlash usulini uchta guruhga ajratadi:

- Mohiyat bo'yicha butunlik;
- Murojaat bo'yicha butunlik;
- Foydalanuvchi aniqlaydigan butunlik.

Butunlikni aniqlash usullari:

1. Birinchi kalitda qatnashuvchi atributlarga aniqlanmagan qiymatlar qabul qilinishiga ruxsat etilmaydi.

2. Tashqi kalit qiymati quyidagilar biri bolishi kerak:

- Birinchi kalit qiymatiga teng;
- To'liq aniqlanmagan, ya'ni tashqi kalitda qatnashadigan har bir atribut qiymati aniqlanmagan bo'lishi kerak.

3. Har qanday aniq bir ma'lumotlar bazasi uchun qo'shimcha qoidalar spetsifikatsiyalari mavjud. Ular ishlab chiquvchilar yordamida aniqlanadi. Ko'p hollarda tekshiriladi:

- U yoki bu atributning unikalligi;
- Qiymatlar diapazoni;
- Qiymatlar to'plamining aloqadorligi.

Jadvallarni yaratish. Jadvallar CREATE TABLE komandasi bilan yaratiladi. Bu komanda qatorlarsiz bo'sh jadval yaratadi.

CREATE TABLE komandasi jadval nomini va jadval o'zini ma'lum tartibda ko'rsatilgan ustunlar nomlari ketma – ketligi ta'rifi ko'rinishida aniqlaydi. U ma'lumotlar tiplari va ustunlar o'lchovini aniqlaydi. Har bir jadval juda bo'lmaganda bitta ustunga ega bo'lishi kerak.

CREATE TABLE komandasi sintaksisi:

```
CREATE TABLE <table-name> (
  <column name> <data type>[(<size>)],
  <column name> <data type>[(<size>)],
  ...
);
```

Argument qiymati kattaligi ma'lumot turiga bog'liqdir. Agar siz maxsus ko'rsatmasangiz, tizim avtomatik qiymatni o'rnatadi. Bundan buyon quyida keltirilgan 3 ta jadvaldan iborat ma'lumotlar bazasini ko'ramiz.

Jadval Sotuvchilar (Salepeople):

Snum	Sname	City	Comm
11	Peel	London	0.12
12	Serres	San Jose	0.13
14	Motika	London	0.11

- SNum – har bir sotuvchi unikal nomeri,
- SName – sotuvchi nomi,
- City – sotuvchi adresi (shahar),
- Comm – sotuvchilarning o'nli shakldagi komission foydasi.

Jadval Buyurtmachilar (Customers):

Cnum	Cname	City	Rating	SNum
21	Hoffman	London	100	11
22	Giovanni	Rome	200	13
23	Liu	SanJose	200	12

- CNum – har bir buyurtmachi unikal nomeri,

- CName – buyurtmachi nomi,
- City – buyurtmachi adresi (shahar),
- Rating – buyurtmachining boshqalardan ustunlik darajasini ko'rsatuvchi kod (reyting),
- SNum – shu buyurtmachiga tayinlangan sotuvchi nomeri.

Jadval Buyurtma (Orders):

Onum	AMT	Odate	CNum	Snum
38	4723.00	1990/10/05	26	11
310	1309.95	1990/10/06	24	12

- ONum – har bir sotib olish unikal nomeri,
- AMT – sotib olish summasi qiymati,
- ODate – sotib olish sanasi,
- CNum – sotib oluvchi buyurtmachi nomeri,
- SNum – sotuvchining nomeri.

Misol uchun sotuvchilar jadvalini yaratishni ko'rib chiqamiz:

CREATE TABLE Salepeople

(
SNum integer,
SName char (10),
City char (10),
Comm decimal
);

Masalan: Student1 jadvalini quyidagi komanda bilan yaratish mumkin:

CREATE TABLE Student1
(Student_ID INTEGER,
SURNAME VARCHAR(60),
NAME VARCHAR(60),
STIPEND DOUBLE,
KURS INTEGER,
CITY VARCHAR(60),
BIRTHDAY DATE,
UNIV_ID INTEGER
);

Jadvallarni o‘chirish. Jadvalni o‘chirish imkoniga ega bo‘lish uchun, jadval egasi (ya‘ni yaratuvchisi) bo‘lishingiz kerak. Faqat bo‘sh jadvalni o‘chirish mumkin. Qatorlarga ega bo‘lgan, to‘ldirilgan jadvalni o‘chirish mumkin emas, ya‘ni jadval o‘chirishdan oldin tozalangan bo‘lishi kerak. Jadvalni o‘chirish komandasi quyidagi ko‘rinishga ega:

DROP TABLE < table name >;

Masalan: **DROP TABLE Salepeople;**

Jadvalni yaratilgandan so‘ng o‘zgartirish. Jadvalni o‘zgartirish uchun ALTER TABLE komandasidan foydalaniladi. Bu komanda jadvalga Yangi ustunlar qo‘shish, ustunlarni o‘chirish, ustunlar kattaligini o‘zgartirish, hamda cheklanishlarni qo‘shish va olib tashlash imkoniyatlariga ega. Bu komanda ANSI standarti qismi emas, shuning uchun har xil tizimlarda har xil imkoniyatlarga ega. Jadvalga ustun qo‘shish uchun komandaning tipik sintaksisi:

**ALTER TABLE <table name> ADD <column name>
<data type> <size>;**

Masalan:

ALTER TABLE Salepeople ADD Phone CHAR(7);

Jadvaldagi ma‘lumotlarni maydonlar bo‘yicha qidirish- tanlash amali yetarli darajada tezlatish uchun ma‘lumotlarni berilgan maydon bo‘yicha indeksatsiya qilish ishlatiladi. Indeksni bitta yoki bir nechta maydon bo‘yicha bajarish mumkin.

Indeks komandasini ko‘rinishi:

**CREATE INDEX < indeks nomi>
ON <jadval nomi>(<ustun nomi>[,<ustun nomi>]);**

Bu komanda bajarilishi uchun jadval yaratilgan bo‘lishi kerak va indeksda ko‘rsatilgan ustunlar unda bo‘lishi kerak. Masalan, Agar EHAM_MARKS jadvalidan talabani Student_ID maydoni qiymati bo‘yicha baxosini qidirish tez-tez talab etilsa, unda shu maydon bo‘yicha indeks bajariladi.

**CREATE INDEX Student_ID_1
ON EHAM_MARKS (Student_ID) ;**

Indeksni olib tashlash uchun (bunda uni nomini albatta bilish kerak) quyidagi komanda ishlatiladi.

DROP INDEX < INDES NOMI>;

Masalan:

DROP INDEX < Student_ID_1 >;

Mavjud jadval strukturasi va parametrlar uchun ALTER TABLE komandasi ishlatiladi. Masalan jadvalga ustunlar qo'shish ALTER TABLE komandasi quyidagicha bo'ladi.

ALTER TABLE < jadval nomi > ADD(<ustun nomi > <ma'lumot tipi> <o'lchami>);

Bu komanda bo'yicha mavjud jadval satrlariga yangi ustun qo'shiladi va o'nga qiymati yoziladi. Jadvalga bir nechta ustun ham qo'shsa bo'ladi. Ular bir-biridan vergul bilan ajratiladi.

ALTER TABLE < jadval nomi > MODIFY (<ustun nomi > <ma'lumot tipi> <o'lcham/aniqlik >);

Ustun harakteristikalarini modifikatsiyalashda quyidagi cheklanishlarni hisobga olish kerak :

- Ma'lumot toifasini o'zgartirishni, faqat ustun bo'sh bo'lsa bajarish mumkin.
- To'ldirilmagan ustun uchun o'lcham/ aniqlik uzunlikga kiritirish mumkin.
- To'ldirilgan ustun uchun o'lcham/ aniqlik faqat kattalashtirish mumkin.
- NOTNULL urnatilishi uchun ustunda birorta ham qiymat bo'lmasligi kerak.

Sukut bilan o'rnatilgan qiymatni har doim uzunlikgartirish mumkin. Jadvallarni olib tashlash quyidagi komanda bilan bajariladi:

DROP TABLE < jadval nomi >;

Mumkin bo'lgan ma'lumot qiymatlar cheklanishlar bo'lishi mumkin. Unda CREATE TABLE komandasi quyidagicha bo'ladi.

**CREATE TABLE < jadval nomi > (
<ustun nomi > ma'lumot toifasi > <usto'nga cheklanishlar>,
<ustun nomi> <ma'lumot toifasi > <usto'nga cheklanishlar>,
< jadvalga cheklanishlar> (<ustun nomi>[,< ustun nomi >])
);**

Masalan , qiymatni Student jadvalini aniqlashda jadvalidagi Student_ID , SURNAME ,NAME , maydonlarida ishlatishni taqiqlash uchun komanda quyidagicha bo‘ladi:

```
CREATE TABLE Student  
( Student_ID INTEGER NOT ,  
SURNAME CHAR (25) NOT NULL,  
NAME CHAR(10 ) NOT ,  
STIPEND INTEGER,  
KURS INTEGER,  
CITY CHAR(15),  
BITHDAY DATE,  
UNIV_ID INTEGER);
```

Ba‘zi hollarda birir maydonga kiritilayotgan barcha qiymatlar bir- biridan farq qilishi kerak. Bunda shu maydon uchun UNIQUE (yagona) so‘z ishlatiladi.

Masalan: Student jadvalida Student_ID qiymatlari farqli bo‘lishi uchun komanda quyidagicha bo‘ladi.

```
CREATE TABLE Student  
( Student_ID INTEGER NOT UNIQUE,  
SURNAME CHAR (25) NOT NULL,  
NAME CHAR(10 ) NOT ,  
STIPEND INTEGER,  
KURS INTEGER,  
CITY CHAR(15),  
BITHDAY DATE);
```

Jadvalda kalit maydonlarni ishlatish komandasi quyidagicha bo‘ladi

```
CREATE TABLE Student  
( Student_ID INTEGER PRIMER KEY ,  
SURNAME CHAR (25) NOT NULL,  
NAME CHAR(10 ) NOT ,  
STIPEND INTEGER,  
KURS INTEGER,  
CITY CHAR(15),  
BITHDAY DATE,  
UNIV_ID INTEGER);
```

SQL tilida jadvalga ma'lumotlar kiritish uchun, ular o'zgartirish va olib tashlash uchun ma'lumotlar bilan manipulyasiya qilish (DML) tilining uchta komandasi mo'ljallangan. Bular

- INSERT (qo'shish),
- UPDATE (tiklash yangilash),
- DELETE (olib tashlash, yo'qotish) komandalaridir.

INSERT komandasi (buyruqi) jadvalga yangi satr qo'shishni amalga oshiradi. Sodda holda uning ko'rinishi quyidagicha:

```
INSERT INTO <jadval nomi>  
VALUES (<qiymat>,<qiymat>);
```

Bunday yozuvda **VALUES** kalit so'zidan keyin qavs ichida ko'rsatilgan qiymatlar jadvaldagi yangi qo'shilgan satrning maydonlariga kiritiladi. Kiritish jadvalini **CREATE TABLE** operatori bilan yaratilish paytidagi ustunlarni ko'rsatish tartibida amalga oshiriladi. Masalan, Student jadvalida yangi satrni qo'shish quyidagicha amalga oshirish mumkin:

```
INSERT INTO Student  
VALUES (101, 'Ivanov', 'Aleksandr', 200,3,  
'Moskva', '6/10/1979', 15);
```

Agar birorta maydonga qiymati qo'shish zarur bo'lsa u oddiy qiymat kabi kiritiladi.

```
INSERT INTO Student  
VALUES (101, 'Ivanov', NULL, 200,3,  
'Moskva', '6/10/1979', 15);
```

Ba'zi hollarda maydonlarning qiymatini **CREATE TABLE** komandasida berilgan tartibdan boshqa tartibda kiritish zaruriyati paydo bo'lsa yoki qiymatlarni ba'zi bir ustunlarga kiritish talab etilmasa, **INSERT** komandasining quyidagi ko'rinishi ishlatiladi.

```
INSERT INTO Student (student_ID, city, surname,  
name) VALUES (101, 'Moskva', 'Ivanov', 'Casha');
```

Qavs ichidagi ro'yxatda nomi keltirilmagan ustunlarga avtomatik ravishda sukut bilan jadval tavsiflashda (**CREATE TABLE** komandasida) tayinlangan qiymat yoki qiymat tayinlanadi. **INSERT**

komandasi yordamida, bir jadvaldan qiymat tanlab olib uni boshqajadvalga joylashtirish mumkin. Masalan: quyidagi so‘rov

```
INSERT INTO Student1  
SELECT *  
FROM Student  
WHERE CITY='Moskva';
```

Bunda Student1 jadvali CREATE TABLE komandasi yordamida yaratilgan bo‘lishi kerak va Student jadvali strukturaga o‘xshash bo‘lishi kerak.

Jadvaldagi satrlarni olib tashlash **uchun DELETE** komandasi ishlatiladi. Quyidagi ifoda **Exam_marks1** jadvalidan barcha satrlarni olib tashlaydi.

```
DELETE FROM Exam_marks1;
```

Buning natijasida jadval bo‘sh bo‘lib qoladi(bundan so‘ng, uni **DROP TABLE** komandasi bilan olib tashlash mumkin). Jadval bir yo‘la birorta shartni qanoatlantiradigan bir nechta satrni olib tashlash uchun WHERE parametridan foydalanish mumkin.

Masalan:

```
DELETE FROM Exam_marks  
WHERE student_ID =103;
```

Satrlar guruhini olib tashlash ham mumkin :

```
DELETE FROM Student1  
WHERE CITY= 'Moskva';
```

UPDATE komandasi jadval satrlari yoki mavjud satrni ba‘zi bir yoki barcha maydonlarini qiymatini tiklash, ya‘ni o‘zgartirish imkonini beradi. Masalan: **University** jadvalidagi, barcha universitetlarini reytingini 200 qiymatga o‘zgartirish uchun quyidagi konstruksiyani ishlatish mumkin:

```
UPDATE University  
SET RATING=200;
```

Jadvaldagi maydon qiymatlarini o‘zgartirish kerak bo‘lgan aniq satrlarni ko‘rsatish uchun, UPDATE komandasi WHERE parametrida predikat ishlatish mumkin.

```
UPDATE University
```

```
SET RATING=200  
WHERE CITY= 'Moskva';
```

Bu so'rov bajarilganda, faqat Moskvada joylashgan universitetlarning reytingi o'zgartiriladi. UPDATE komandasi faqat 1ta ustun emas balki ustunlar to'plamini o'zgartirish imkonini beradi. Qiymatlari, modifikatsiya (takomillashtirilgan) qilinishi zarur bo'lgan aniq ustunlarni ko'rsatish uchun, SET parametri ishlatidi.

Masalan: o'qitilayotgan fan nomi "MATEMATIKA" (uning uchun **subj_ID =43**) "Oliy matematika" nomiga o'zgartirish talab etilsa va bunday indetifikatsion nomeri saqlab o'zgarish qoldirish kerak bo'lib, lekin shu bilan birga jadvaldagi mos satr maydonlariga o'qitiladigan fan haqida yangi ma'lumotlar kiritish uchun so'rov quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

```
UPDATE Subject1  
SET subj_name= 'Visshaya matematika',  
hour=36, semestr=1  
WHERE subj_ID=43;
```

UPDATE komandasini SET parametrada skalyar ifodalarni ishlatish mumkin. Skalyar ifodada maydon sifatida o'zgartirilayotgan va boshqa maydonlar kiritilib, u maydon qiymatini o'zgarish usulini ko'rsatadi.

```
UPDATE University1  
SET rating=rating*2;
```

Masalan: Student1 jadvaldagi **stipend** maydon qiymatini Moskva shahri talablari uchun 2 marta oshirish uchun quyidagi so'rov ishlatiladi.

```
UPDATE Student1  
SET stipend = stipend *2  
WHERE city= 'Moskva';
```

SET predikat hisoblanmaydi, shuning uchun unda qiymatniko'rsatish mumkin.

```
UPDATE Student1  
SET stipend =NULL  
WHERE city= 'Moskva';
```

INSERTda qism so‘rovlarini ishlatish. INSERT operatorini qism so‘rovi bilan ishlatish 1 ta jadvalga birdaniga bir nechta satr yuklash imkonini beradi. VALUES ishlatuvchi INSERT operatori 1ta satr qo‘shsa INSERTli qism so‘rov jadvalga, qism so‘rov boshqa jadvaldan qancha satr ajratsa shuncha satr jadvalga qo‘shadi. Bu holda qism so‘rov bilan olinayotgan ustunlar soni va toifasi bo‘yicha, ma‘lumotlari qo‘shilayotgan jadvaldagi ustun soni va toifasiga mos kelishi kerak.

Masalan: faraz qilaylik Student1 jadvalini strukturasi(tuzunlikilmasi), Student jadval strukturasi to‘la mos bo‘lsin. Student jadvalidan Moskva shahri talabalari barchasi haqida yozuvlari bilan Student1 jadvalni to‘ldirish imkonini beradigan so‘rov ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi.

```
INSERT INTO Student1  
SELECT *  
FROM Student  
WHERE city= ‘Moskva’;
```

Student1 jadvaliga Moskvada o‘qiyotgan barcha talabalar haqidagi ma‘lumotlarni qo‘shish uchun WHERE parametrda mos qism so‘rov ishlatish mumkin.

Masalan:

```
INSERT INTO Student1  
SELECT *  
FROM Student  
WHERE univ_ID IN  
( SELECT univ_ID  
FROM University  
WHERE city = ‘Moskva’);
```

Nazorat savollari

1. SQL tilining jadval yaratish operatori sintaksisi qanday?
2. Indeks operatorini ko‘rinishi va uning vazifasi?
3. SQL tilining jadvalga yozish va takomillashtirish komandalarini tavsiflang.
4. Insert opretori haqoda ma`lumot bering.
5. IN predikati nima vazifa bajaradi?
6. Drop va Delete operatorlarining farqi nimada?

7. Update operatori sintaksisi qanday yoziladi?

3.4. SQLda jarayonlar va standart funksiyalar

Agregat funksiyalar qo'llanishi. Agregat (yoki STATIK) funksiyalar, sonli yoki hisoblanuvchi ustunlar bilan ishlaydi. Agregat funksiya argumenti butun ustun bo'lib, bitta qiymat qaytaradi. Bu funksiyalarni ko'rib chiqamiz:

- **SUM()** – Ustundagi hamma qiymatlar summasini hisoblaydi.
- **AVG()** – Ustundagi hamma qiymatlar o'rtasi qiymatini hisoblaydi.
- **MIN()** – Ustundagi hamma qiymatlar eng kichigini aniqlaydi.
- **MAX()** – Ustundagi hamma qiymatlar eng kattasini aniqlaydi.
- **COUNT()** – Ustundagi qiymatlar sonini hisoblaydi.
- **COUNT(*)** – So'rov natijalari jadvalidagi satrlar sonini hisoblaydi.

Agregatlash argumenti bo'lib, ustun nomidan tashqari ixtiyoriy matematik ifoda xizmat qilishi mumkin. Misol uchun quyidagi so'rovda: sizni kompaniyangizda reja bajarilishi o'rtacha protsenti qancha?

```
SELECT AVG(100 * (SALES/QUOTA))  
FROM SALESREPS
```

Yana bir shakl: Sizni kompaniyangizda reja bajarilishi o'rtacha protsenti qancha?

```
SELECT AVG(100 * (SALES/QUOTA)) PERCENT  
FROM SALESREPS
```

Bu holda ustun nomi ma'noliroq, lekin bu asosiysi emas. Ustunlar summasini hisoblab ko'ramiz. **SUM()** funksiyasini qo'llaymiz, ustun sonli bo'lishi kerak.

Masalan, quyidagicha: kompaniya xizmatchilari sotuvlar hajmi rejadagi va haqiqiy o'rta qiymati qanchaga teng?

```
SELECT SUM(QUOTA), SUM(SALES)  
FROM SALESREPS
```

AVG() agregatlash funksiyasiga yana bir necha sodda misollarni ko‘ramiz.

Masalan: "ACI" ishlab chiqaruvchi mollari o‘rtacha narxini hisoblang.

```
SELECT AVG(PRICE)  
FROM PRODUCTS  
WHERE MFR_ID = 'ACI'
```

Ekstremumlarni topish funksiyalari yani MIN(), MAX() funksiyalarini ko‘ramiz. Bu funksiyalar sonli ustunlar, sanalar va satrli o‘zgaruvchilar bilan ishlaydi. Eng sodd qo‘llanishi sonlar bilan ishlash.

Masalan quyidagi so‘rov beramiz: eng ko‘p va kam sotuvlar rejadagi hajmi?

```
SELECT MIN(QUOTA), MAX(QUOTA)  
FROM SALESREPS
```

Bu sonlarni o‘z ichiga olgan ustunlardir. Yana bir so‘rov beramiz: bazadagi buyurtmalarning ichida eng oldin berilgan so‘rov sanasi?

```
SELECT MIN(ORDER_DATE)  
FROM ORDERS
```

Satrlar bilan ishlaganda har xil SQL serverlardagi kodirovkalar har xil natija berishi mumkin. Yozuvlar sonini sanash uchun COUNT() qo‘llanadi. Bu funksiya son qiymat qaytaradi.

Masalan: Kompaniyamiz mijozlari soni nechta?

```
SELECT COUNT(CUST_NUM)  
FROM CUSTOMERS
```

Yana bir so‘rov: Qancha xizmatchi rejani ortig‘i bilan bajardi?

```
SELECT COUNT(NAME)  
FROM SALESREPS  
WHERE SALES > QUOTA
```

COUNT(*) funksiyasi qiymatlar sonini emas, satrlar sonini hisoblaydi. Quyidagicha yozish mumkin:

```
SELECT COUNT(*)  
FROM ORDERS  
WHERE AMOUNT > 250
```

NULL qiymat va agregat funksiyalar. Ustun qiymati NULL bo'lsa AVG(), MIN(), MAX(), SUM(), COUNT() funksiyalari qanday qiymat qaytaradi. ANSI/ISO qoidalariga ko'ra "agregat funksiyalar NULL qiymatni e'tiborga olmaydi".

Quyidagi so'rovni ko'ramiz:

```
SELECT COUNT(*), COUNT(SALES), COUNT(QUOTA)  
FROM SALESREPS
```

Jadval bitta lekin so'rovdagi qiymatlar har xil. Chunki QUOTA maydoni- NULL qiymatni o'z ichiga oladi. COUNT funksiyasi COUNT(maydon) ko'rinishda bo'lsa NULL qiymatni e'tiborga olmaydi, COUNT(*) bo'lsa satrlar umumiy sonini hisoblaydi. MIN(), MAX() funksiyalari ham NULL qiymatni e'tiborga olmaydi, lekin AVG(), SUM() - NULL qiymat mavjud bo'lsa chalkashtiradi.

Masalan, quyidagi so'rov:

```
SELECT SUM(SALES), SUM(QUOTA),  
(SUM(SALES) - SUM(QUOTA)), (SUM(SALES - QUOTA))  
FROM SALESREPS
```

(SUM(SALES)-SUM(QUOTA)) va (SUM(SALES-QUOTA)) ifodalari agar QUOTA, maydoni NULL qiymatga ega bo'lsa har xil qiymat qaytaradi. Ya'ni ifoda SUM(ustun qiymati - NULL). Yana NULL qaytaradi. Shunday qilib:

1. Agar ustundagi qiymatlardan biri NULL ga teng bo'lsa, funksiya natijasini hisoblashda ular tashlab yuboriladi.

2. Agar ustundagi hamma qiymatlar NULL ga teng bo'lsa, AVG(), SUM(), MIN(), MAX() funksiyalari NULL qaytaradi. Funksiya COUNT() nol qaytaradi.

3. Agar ustunda qiymatlar bo'lmasa (ya'ni ustun bo'sh), AVG(), SUM(), MIN(), MAX() funksiyalari NULL qaytaradi. Funksiya COUNT() nol qaytaradi.

4. Funksiya COUNT(*) satrlar sonini hisoblaydi va ustunda NULL qiymat bor yo'qligiga bog'liq emas. Agar ustunda satrlar bo'lmasa, bu funksiya nol qaytaradi.

5. DISTINCT funksiyasini agregat funksiyalar bilan birga ishlatish mumkin.

Masalan quyidagi so'rovlarda: kompaniyamizda qancha har xil raportlar nomlari mavjud?

```
SELECT COUNT(DISTINCT TITLE)  
FROM SALESREPS
```

DISTINCT va agregatlar ishlashda quyidagi qoidalar mavjud. Agar siz DISTINCT va agregat funksiyani ishlatsangiz uning argumenti faqat ustun nomi bo'lishi mumkin, ifoda argument bo'lolmaydi. MIN(), MAX() funksiyalarida DISTINCT ishlatish ma'nosi yo'q. COUNT() funksiyasida DISTINCT ishlatiladi, lekin kam hollarda COUNT(*) funksiyasiga umuman DISTINCT qo'llab bo'lmaydi, chunki u satrlar sonini hisoblaydi. Bita so'rovda DISTINCT faqat bir marta qo'llanishi mumkin. Agarda u agregat funksiya argumenti sifatida qo'llanilsa, boshqa argument bilan qo'llash mumkin emas.

Agregatlar va ma'lumotlarni guruhlash. Agregat funksiyalar jadval uchun natijaviy satr hosil qiladi.

Masalan: Buyurtma o'rtacha narxi qancha?

```
SELECT AVG(AMOUNT)  
FROM ORDERS
```

Masalan, oraliq natijani topish lozim bo'lsin. Bu holda guruhlanishli so'rov yordam beradi. Ya'ni SELECT operatorining GROUP BY ifodasi.

Avval GROUP BY ifodasi qatnashgan quyidagi so'rovni ko'ramiz: Har bir xizmatchi uchun buyurtma o'rtacha narxi qancha?

```
SELECT REP, AVG(AMOUNT)  
FROM ORDERS  
GROUP BY REP
```

REP maydoni bu holda guruhlash maydonidir, ya'ni REP maydonning hamma qiymatlari guruhlariga ajratiladi va har bir guruh

uchun AVG(AMOUNT) ifodasi hisoblanadi. Ya'ni quyidagilar bajariladi: so'rovlar har bir xizmatchaga bittadan guruhga ajratiladi. Har bir guruhda REP maydoni bir xil qiymatga ega. Har bir guruh uchun guruhga kiruvchi hamma satrlar bo'yicha AMOUNT ustuni o'rta qiymati hisoblanadi va bita natijaviy satr hosil qilinadi. Bu qator guruh uchun REP ustuni qiymati vash u guruh uchun so'rov o'rta qiymatini o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, GROUP BY ifodasi qo'llanilgan so'rov, "GURUHLANISHLI SO'ROV " deb ataladi. Shu ifodadan keyin kelgan ustun "**guruhlash ustuni** " deyiladi. Yana bir necha guruhlanishli so'rovlarni ko'rib chiqamiz.

Har bir ofis uchun sotuvlarning rejalashtirilgan hajmi diapazoni qancha?

```
SELECT REP_OFFICE, MIN(QUOTA), MAX(QUOTA)
FROM SALESREPS
GROUP BY REP_OFFICE
```

Yana bir so'rov: Har bir ofisda qancha xizmatchi ishlaydi?

```
SELECT REP_OFFICE, COUNT(*)
FROM SALESREPS
GROUP BY REP_OFFICE
```

Yana bir guruhlanishli qiziqarli so'rov: Har bir xizmatchi nechta mijozga xizmat ko'rsatadi?

```
SELECT COUNT(DISTINCT CUST_NUM),
CUSTOMERS FOR SALESREPS', CUST_REP
FROM CUSTOMERS
GROUP BY CUST_REP
```

Bu yerda 'CUSTOMERS FOR SALESREPS' psevdomaydonning ishlatilishiga e'tibor bering. So'rov natijalarini bir nechta ustun bo'yicha guruhlash mumkin.

Masalan, quyidagicha:

Har bir xizmatchi uchun har bir klient bo'yicha buyurtmalar umumiy sonini hisoblash.

```
SELECT REP, CUST, SUM(AMOUNT)
FROM ORDERS
GROUP BY REP, CUST
```


Lekin ikki ustun bo'yicha guruhlashda natijalar ikki darajasiga ega guruhlar va ostki guruhlar yaratish mumkin emas. Lekin tartiblashni qo'llash mumkin. Shu bilan birga GROUP BY ishlatilganda so'rov natijalari avtomatik tartiblanadi. Quyidagi so'rovni ko'ramiz:

Har bir xizmatchi uchun har bir klient bo'yicha buyurtmalar umumiy sonini hisoblash; so'rov natijalarini klientlar va xizmatchilar bo'yicha tartiblash.

```
SELECT REP, CUST, SUM(AMOUNT)  
FROM ORDERS  
GROUP BY REP, CUST  
ORDER BY REP, CUST
```

Shunday qilib GROUP BY ifodasi SELECT ni guruhlarni qayta ishlashga majbur qiladi.

MS SQL serverida COMPUTE ifodasi mavjud bo'lib relyasion so'rovlar asoslariga zid keladi. Lekin uning yordamida saqlanuvchi protseduralardan foydalanmasdan sho'nga o'xshash natijalarni olish mumkin. Guruhlanishli so'rovlar uchun chegaralar mavjud. Satrlarni hisoblanuvchi ifoda asosida guruhlash mumkin emas. Qaytarilayotgan qiymatlar elementlariga ham chegaralar mavjud. Qaytariluvchi ustun bo'lishi umkin:

1. Konstantalar.
2. Guruhga kirgan hamma satrlar uchun bitta qiymat qaytaruvchi agregat funksiya.
3. Guruh hamma satrlarida bir xil qiymatga ega guruhlash ustuni.
4. Ko'rsatilgan elementlarni o'z ichiga oluvchi ifoda.

Odatda guruhlanishli so'rovlar qaytaruvchi ustunlarga guruhlash ustuni va agregat funksiya kiradi. Agar agregat ko'rsatilmasa GROUP BY dan foydalanmasdan DISTINCT ifodasidan foydalanish yetarli. Agar so'rovga guruhlash ustuni qo'shilmasa, u yoki bu satr qaysi guruhga tegishligini aniqlash mumkin emas. Shu kabi SQL92 guruhlanishli so'rovlarni tahlil qilishda birlamchi va ikkilamchi kalitlar haqidagi ma'lumot ishlatilmaydi.

Har bir xizmatchi uchun buyurtmalar umumiy sonini hisoblash::

```
SELECT EMPL_NUM, NAME, SUM(AMOUNT)
FROM ORDERS, SALESREPS
WHERE REP = EMPL_NUM
GROUP BY EMPL_NUM, NAME
```

Yana soddaroq shakl: har bir xizmatchi uchun buyurtmalar umumiy sonini hisoblash:

```
SELECT NAME, SUM(AMOUNT)
FROM ORDERS, SALESREPS
WHERE REP = EMPL_NUM
GROUP BY NAME
```

Agar guruhlash maydonlaridan birida NULL qiymat mavjud bo'lsa qaysi guruhga tegishli bo'ladi? WHERE ifodasida NULL va NULL tenglikka solishtirish natijasi yana NULL beradi. Shuning uchun ANSI/ISO standartida GROUP BY ifodasida NULL qiymatlar teng deb qabul qilingan.

Guruhlash va HAVING yordamida ajratish. Shart bo'yicha satrlarni ajratish uchun WHERE ifodasidan foydalangan edik. Shart bo'yicha guruhlarini ajratish uchun HAVING operatori mavjuddir. Uning sintaksisi WHERE operatori bilan bir xil va ulardan birgalikda foydalanish mumkin.

Quyidagi so'rovni ko'ramiz: buyurtmalar umumiy narxi \$300 dan ortiq xizmatchilar uchun buyurtma o'rtacha narxi qanchaga teng?

```
SELECT REP, AVG(AMOUNT)
FROM ORDERS
GROUP BY REP
HAVING SUM(AMOUNT) > 300
```

Ko'rinib turibdiki, HAVING SUM(AMOUNT) > 300 ifodasi satrlarni guruhlash sharti sifatida kelmoqda. Agar SUM(AMOUNT) > 300 sharti yolg'on bo'lsa, bu guruh natijaviy to'plamdan chiqariladi. Agar rost bo'lsa guruh natijaviy to'plamga kiradi.

Yana bir misol ko'raylik: ikki va undan ortiq xizmatchiga ega har bir ofisning hamma xizmatchilari uchun rejadagi va xaqiqiy sotuvlar umumiy hajmini hisoblash.

```
SELECT CITY, SUM(QUOTA),
```

```

SUM(SALESREPS.SALES)
FROM OFFICES, SALESREPS
WHERE OFFICE = REP_OFFICE
GROUP BY CITY
HAVING COUNT(*) >= 2

```

Bu misolda WHERE va HAVING ifodalari o‘z funksiyalarini bajaradilar. Yana shunga e’tibor berish kerakki HAVING ifodasida agregat funksiyalardan foydalaniladi. **OFFICES** va **SALESREPS** jadvallari xizmatchi yashaydigan gshaharni topish uchun qo‘shiladilar. Qo‘shilgan jadval satrlarlari ofislar bo‘yicha guruhlanadilar. Ikkidan kam satrga ega guruhlar tashlab yuboriladi. Ular HAVING ifodasi talabiga javob bermaydilar. Har bir guruh uchun xaqiqiy va rejadagi sotuvlar hajmlari hisoblanadi.

Murakkabroq misolni ko‘ramiz:

Har bir tovar nomi uchun narxi, ombordagi soni va buyurtma berilganlar umumiy sonini ko‘rsating, agar uning uchun buyurtma berilganlar umumiy soni ombordagi umumiy soni 75 foizidan ko‘p bo‘lsa.

```

SELECT DESCRIPTION, PRICE, QTY_ON_HAND,
SUM(QTY)
FROM PRODUCTS, ORDERS
WHERE MFR = MFR_ID
GROUP BY MFR_ID, PRODUCT_ID, DESCRIPTION,
PRICE, QTY_ON_HAND
HAVING SUM(QTY) > (0.75 * QTY_ON_HAND)
ORDER BY QTY_ON_HAND DESC

```

